



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR



HIMOYANGDA SERGAKMIZ, VATAN!

Sherzod Egamberdiyev



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 12-IYUN
№24 (3190)



Boshqaruv san'ati

ZAMONAVIY HARBIY BOSHQARUVDA

G'ALABA VA JAMOA HAMJIHATLIGI

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan geosiyosiy vaziyat, harbiy texnologiyalarning mislsiz rivojlanishi va gibrud urushlar asri armiya oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Zamonaviy Qurolli Kuchlarning qudrati faqatgina uning texnik ta'minoti yoki strategik qurol-yarog'lari bilan emas, balki eng avvalo, harbiy jamoalarni boshqarayotgan komandirlarning intellektual salohiyati va yetakchilik mahorati bilan o'lchanadi.

Harbiy boshqaruv – bu shunchaki buyruq berish emas, balki murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, shaxsiy tarkibni umumiy g'oya atrofida birlashtirish san'atidir. **Xo'sh, bugungi kunda harbiy rahbarning boshqaruv uslubi qanday bo'lishi kerak?** Mazkur maqolada harbiy organlarning boshqaruv faoliyati, uning tayanch manbalari va zamonaviy rahbarlik uslublarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritamiz.

Harbiy boshqaruvning to'rt ustuni va hayotiy manbalar

Harbiy sohadagi boshqaruv faoliyatini ilmiy-nazariy va empirik (*amaliy*) jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu tizim o'z-o'zidan shakllanmaydi. Komandirning kundalik faoliyati va qarorlar qabul qilish jarayoni negizida to'rtta asosiy manba yotadi:

Huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

Davlat qonunlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, Umumqo'shin nizomlari hamda yuqori harbiy rahbariyatning direktiva va buyruqlari. Bu element boshqaruvning qat'iy qonuniy ramkasini belgilaydi.

Umume'tirof etilgan tamoyillar:

Harbiy boshqaruvning yillar davomida sinalgan, nazariy jihatdan tasdiqlangan oltin qoidalari va me'yorlari.

Shaxsiy amaliy tajriba:

Ofitserning uzoq yillik harbiy xizmati davomida to'plagan individual tajribasi va hayotiy xulosalari.

Ilmiy ishlanmalar:

Harbiy ilmiy va zamonaviy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar.

Mazkur manbalar asosidagi harbiy boshqaruv faoliyati o'zining tub mohiyatiga ko'ra, ikki yo'nalishli jarayondir. Bir tomondan, u ofitserlar tomonidan yagona maqsad yo'lida tizimli ravishda bajariladigan vazifalar majmuini anglatadi, ikkinchi tomondan – rahbarning tashkilotchilik qobiliyati, uslubiy yechimlari va shaxsiy (*subyektiv*) fazilatlarining o'zaro uyg'unligini namoyon etadi. **Harbiy olim P.K. Altuxov o'zining "Qo'shinlarni boshqarish asoslari" nomli fundamental**



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

asarida ta'kidlaganidek, boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining shaxsiy sifatleri butun bir tizimning samaradorligini belgilab beruvchi hal qiluvchi kuchdir.

Ko'priq vazifasini o'tovchi omillar: rahbarlik uslublari

Har qanday boshqaruv tizimida komandirning shaxsiy fazilatleri u qo'llaydigan "rahbarlik uslubi" orqali yuzaga chiqadi. Uslub – bu shunchaki ish yuritish shakli emas, balki ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, u harbiy nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi o'ziga xos ko'prikdir. Aynan ushbu "ko'priq" ta'sir ko'rsatuvchi subyekt (*komandir*) va ta'sir etiluvchi obyekt (*shaxsiy tarkib*) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Komandirning boshqaruv uslubi uning uchta muhim jihatidan dalolat beradi:

rahbarga xos bo'lgan individual shaxsiy xususiyatlar;
mavjud harbiy xizmat muhitini chuqur tahlil qila olish va o'z imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish qobiliyati;

obyektiv shart-sharoitlar va shaxsiy tarkibning imkoniyatlarini umumiy maqsad yo'lida uyg'unlashtira olish ko'nikmasi.

Zamonaviy harbiy rahbarning ish uslubi shakllanishida ikki muhim asos mavjud. **Obyektiv asos** bu komandir faoliyat yuritayotgan soha, jamoaning maqsadlari, tarkibiy tuzilishi va askarlarning xususiyatlaridir.

Subyektiv asos esa rahbarning shaxsiy tafakkuri, axloqi, irodasi va hissiy intellektidir. Boshqaruvning haqiqiy samaradorligi aynan mana shu obyektiv va subyektiv asoslarning qanchalik uyg'unlashganiga bog'liq.

Zamonaviy menejmentdagi to'rtta asosiy model harbiy sohada ham qo'llaniladi. Jumladan, harbiy va ijtimoiy adabiyotlarda rahbarlik faoliyatining to'rtta asosiy uslubi farqlanadi. **Keling, ularni zamonaviy harbiy jamoa prizmasidan tahlil qilib ko'ramiz:**

Avtoritar uslub: Bu uslubda hokimiyat mutlaq markazlashgan bo'ladi. Boshliqning xohish-irodasi bo'ysunuvchilarga qat'iy va majburiy tarzda o'tkaziladi. Bunday rahbar ko'pincha ma'muriylashtirish va jazo usullariga tayanadi, jamoaning fikri yoki qobiliyatini inobatga olmaydi. U shaxsan o'zi qaror qabul qiladi va o'z qarashlariga nisbatan e'tirozlarni mutlaq qabul qilmaydi. Inqirozli va soniyalar g'alaba taqdirini hal qiladigan jangovar vaziyatlarda bu uslub kerak bo'lsa-da, tinchlik davridagi kundalik xizmatda u jamoa motivatsiyasini tushirib yuborishi mumkin.

Demokratik uslub: Ushbu yondashuv tushuntirish, ishontirish va o'zaro hamkorlikka asoslanadi. Bu yerda qarorlar jamoaviy muhokama qilinadi, bu esa har bir harbiy xizmatchida shaxsiy mas'uliyat tuyg'usini uyg'otadi. Bo'ysunuvchilar shunchaki buyruq ijrochisi emas, balki g'oyaning hammuallifiga aylanadi. Komandir o'z atrofida ko'r-ko'rona bo'ysunuvchi mexanik ijrochilarni emas, balki jarayonni boshidan oxirigacha his qiladigan ongli safdoshlarni shakllantiradi.

Liberal uslub: Sust boshqaruv va nazoratning yetishmasligi bilan ajralib turadi. Bunday rahbar jamoa hayotiga faqatgina tizimsiz, yuzaki aralashadi. Natijada harbiy jamoada muvofiqlashtirilgan harakatlar yo'qoladi, intizom bo'shashadi va umumiy maqsad sari intilish so'nadi.

Harbiy tuzilmalar uchun bu eng xavfli uslub hisoblanadi.

Kengaytirilgan ko'p o'lchovli (vaziyatli) uslub: Bugungi kunning eng ilg'or va tavsiya etilgan yondashuvi. U aniq shart-sharoit va murakkab vaziyatlardan kelib chiqib, yuqoridagi uslublarning eng maqbul jihatlari moslashuvchan tarzda qo'llashni nazarda tutadi. Bu uslubni qo'llagan rahbar vaziyat taqozosiga qarab goh qat'iy avtoritar, goh intellektual demokratik yo'lni tanlay oladigan shiddatli va ko'p qirrali yetakchidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, **komandirning boshqaruv uslubi – bu uning tafakkuri, irodasi va professional mahoratining ko'zguSIDIR.** Zamonaviy harbiy rahbar faqatgina qat'iy intizomga tayanib qolmasdan, harbiy jamoada sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni yarata olishi, har bir askar va ofitserning ichki salohiyatini ro'yobga chiqara bilishi lozim.

Yangi O'zbekistonda milliy armiyamiz ofitserlari boshqaruv faoliyatining ilmiy-nazariy mohiyatini chuqur anglashi, o'z shaxsiy uslubiga tanqidiy nazar tashlashi va o'zida yetakchilik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirib borishi Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini muttasil oshirishning va Vatanimiz xavfsizligini ishonchli ta'minlashning eng muhim kafolatidir. Bo'lajak g'alabalar va jamoaviy yutuqlar aynan ilmiy asoslangan mukammal boshqaruv san'ati zamirida bunyod bo'ladi.

**Polkovnik
Rustam XALILOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
kafedra boshlig'i, dotsent**

Barqaror taraqqiyot sari



Bugungi globallashuv davrida dunyo mamlakatlari o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda faqat tabiiy resurslarga emas, balki tarixiy meros, madaniy qadriyatlar va ilmiy salohiyatga ham tayanmoqda. Ayniqsa, boy sivilizatsion tajribaga ega bo'lgan davlatlar uchun ushbu merosni saqlash, o'rganish va uni zamonaviy iqtisodiyot bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

YANGI RENESSANS SARI QADAM

Shu jihatdan qaraganda, Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilishi O'zbekiston taraqqiyotida muhim strategik qadamlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Mazkur markaz nafaqat tarixiy va ilmiy merosni o'rganish maskani, balki mamlakat iqtisodiyotiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy institut sifatida shakllanmoqda.

O'zbekiston hududi qadimdan islom sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu zamin Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalarni yetishtirib chiqargan. Ularning ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham jahon ilm-fani rivojida muhim o'rin tutadi. Islom sivilizatsiyasi markazining asosiy

vaqtning o'zida faollashuviga olib keladi. Shuningdek, sayyohlarning mamlakatda bo'lish muddati uzaygani sari ularning xarajatlari ham ortib boradi, bu esa milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltiradi.

Islom sivilizatsiyasi markazining yana bir muhim jihati, uning ilm-fan va ta'lim sohalariga ko'rsatayotgan ta'siridir. Zamonaviy iqtisodiyotda bilim va innovatsiyalar asosiy resurs sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, markazda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, noyob qo'lyozmalarni o'rganish va ulami ilmiy muomalaga kiritish jarayonlari mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu yerda tashkil etilayotgan ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va seminarlar



virtual kutubxonalar va interaktiv platformalar yaratish orqali zamonaviy texnologiyalarni joriy etish raqamli iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaz faoliyati bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Uning faoliyati bilan bog'liq holda gidlar, tarjimonlar, tarixchilar, tadqiqotchilar va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi. Shu bilan birga, turizm rivoji mahalliy hunarmandchilik, milliy mahsulotlar ishlab chiqarish va savdo faoliyatining kengayishiga turtki beradi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, bu esa iqtisodiy faollikni oshirib, aholi daromadlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan bu jarayon muhim bo'lib, turizm bilan bog'liq infratuzilmaning rivojlanishi orqali iqtisodiy faoliyat nafaqat markaziy shaharlarda, balki boshqa hududlarda ham kengayib boradi.



vazifalaridan biri aynan ana shu boy merosni tizimli ravishda o'rganish, saqlash va uni keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat bo'lib, bu jarayon, o'z navbatida, yangi iqtisodiy imkoniyatlarning yuzaga kelishiga xizmat qilmoqda. Markaz faoliyatining iqtisodiyotga ta'siri, avvalo, turizm sohasida yaqqol namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda diniy va madaniy turizm jadal rivojlanmoqda va bu jarayonda mazkur markaz muhim rol o'ynamoqda. Dunyoning turli mamlakatlaridan kelayotgan sayyohlar uchun bu maskan nafaqat tarixiy obyekt, balki ilmiy va ma'naviy markaz sifatida ham qiziqish uyg'otadi. Natijada xorijiy sayyohlar oqimi ortib, mehmonxona xo'jaligi, transport xizmatlari, umumiy ovqatlanish tarmoqlari va boshqa xizmatlar sohasiga bo'lgan talab oshadi. Bu esa iqtisodiyotda multiplikativ ta'sirni yuzaga keltirib, birgina turizm rivoji orqali bir nechta tarmoqlarning bir

nafaqat mahalliy, balki xorijiy olimlarni ham jalb etadi. Bu esa ilmiy hamkorlikni kengaytirib, yangi g'oyalar va innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, qo'lyozmalarni raqamlashtirish,



Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda ham muhim rol o'ynamoqda. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida davlatning ijobiy imiji investorlar uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Markaz orqali o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar, ilmiy forumlar va madaniy tadbirlar O'zbekistonni dunyoga kengroq tanitmoqda. Bu esa mamlakatga nisbatan ishonchni mustahkamlab, xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon iqtisodiy diplomatiyaning rivojlanishiga ham turtki beradi, ya'ni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar madaniy va ilmiy hamkorlik orqali mustahkamlanadi.

Islom sivilizatsiyasi markazi bugungi kunda O'zbekistonning iqtisodiy, ilmiy va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutayotgan ko'p funksiyali institutga aylanib bormoqda. U tarixiy merosni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki uni zamonaviy iqtisodiy tizimga faol integratsiya qilmoqda. Natijada madaniy kapital iqtisodiy resursga aylanib, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Islom sivilizatsiyasi markazi O'zbekistonning Uchinchi Renessans sari itilishida muhim tayanch nuqtalardan biri hisoblanadi. U orqali tarix, ilm-fan va iqtisodiyot o'zaro uyg'unlashib, yangi rivojlanish modelini shakllantirmoqda. Shu sababli ushbu markazni rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish mamlakatning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat
sharqshunoslik
universiteti dotsenti v.b.
Ilhomjon RO'ZMATOV,
talaba

Yakuniy davlat imtihonlari



SINOV OSMONIDA TOBLANGAN QANOTLAR

Kishi olgan ilmini va bilimini, albatta sinov tarozisining pallasiga tashlab ko'rish lozim. Xo'sh, bu nimaga kerak o'zi?

So'zimni nega shu fikrdan boshladim? Hozir bu haqda batafsil aytib beraman. Faqat siz biroz vaqtingizni kamina uchun ajratasiz-da, maylimi?

Qisqasi, shu kunlarda kursantlar, ha, bo'lajak ofitserlar yakuniy davlat imtihonlarini nazariy va amaliy tarzda topshirib, komandir va ustozlardan o'rgangan bilimlarini baholab olyapti.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar institutining 4-bosqich kursantlari ham bu jarayonlarda faol ishtirok etyapti.

Kursantlar davlat va jamiyat qurilishi, jamoat tartibi va xavfsizligi, tarbiyaviy hamda mafkuraviy ishlar uslubiyati, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik yo'nalishlari bo'yicha nazariy bilimlari va amaliy tayyorgarliklarini sinovdan o'tkazaypti. Shuningdek, bo'lajak ofitserlarning liderlik fazilatlarini, boshqaruv ko'nikmalari, shaxsiy tarkib bilan ishlash mahorati hamda jamoa oldida erkin va mazmunli nutq so'zlash qobiliyatlariga ham baho berilmoqda. Mazkur sinovlar kelgusida komandirlik va boshliqlik lavozimlarida samarali faoliyat yuritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilardan keng dunyoqarash, zamonaviy bilim va ko'nikmalar, yuksak ma'naviyat hamda vatanparvarlik fazilatlarini talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, institut bitiruvchilari nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar, balki Vatanga sadoqatli, mas'uliyatli va tashabbuskor ofitserlar sifatida shakllanishi lozim. Yakuniy davlat attestatsiyasidagi qo'yilgan baholar, tanqidlar va tavsiyalar bitiruvchilarning kelgusidagi xizmat faoliyatida o'z natijasini berishi turgan gap.

- Natija bersinmi?

- Beradi, albatta.

Samara ko'rinmaganida ular



o'qitilmadi? Sharoit yaratilmadi? Vatan uchun, xalq uchun, ha tinchlikka qalqon bo'lish yo'lida halovatdan kechib, boshqalarning xotirjamligini ta'minlashga mas'ul bo'lib yashayaptimi?

- Yashaydi-da.

- Majburiyati?

- Yo'q, bu majburiyat emas, aksincha chin farzandlik burchi.

- Majburiyat bilan mas'uliyat bir emasmidi?

- Bir. Hatto yonma-yon turadi.

Shunday. Faqat ikkisini bir nuqtaga jamlash, yaxshilik yo'lida sobit bo'lish avvalboshdan, tarbiyadan hosil bo'ladi.

Bo'ladi. Bo'lmay qayerga borardi.

Ha, aka, kaminangiz shu kabi o'ylar qarshisida ko'p o'jiz turib qoladigan odat chiqardi. Lekin kecha adog'i yo'q xayollarimni vertolyotning o'tkir va tezkor parragi chilparchin qilib tashladi. Istanangiz, uni ham aytib beraman.

Tong sahar "Chirchiq" poligoni tomon yo'l oldik. Kun hali yorishib ulgurmagam. Osmonning bir chekkasida tong shafag'i endigina bilinar-bilinmas qizarib kelar, atrofini esa mayin sukunat qoplab yotardi. Hatto xo'rozlar ham uyqudan to'liq uyg'onmagan, yaltiragan ko'zlarini zo'rg'a ochib-yumardi.

Yo'l bo'yidagi daraxtlarni sanab, xayollar og'ushida manzilga yetib keldik. Poligon bizni keng va salobatli qiyofada qarshi oldi. Maydon chetida saf tortib turgan havo kemalari bir qarashdayoq diqqatni tortardi. Ulkan vertolyotlar xuddi og'ir, vazmin jangchilar kabi navbatdagi buyruqni kutib turardi.

Bir necha daqiqa avval xayollarimda aylanib yurgan savollar, mas'uliyat va tarbiya haqidagi o'ylar shu yerda yana boshqacha ma'no kasb etdi. Chunki qarshimda kitob sahifalarida emas, hayotning o'zida toblanib borayotgan yigitlarni ko'rib turgandim. Bugun ularning nazariy bilimi emas, balki amaldagi tayyorgarligi sinovdan o'tadi.

Aytgancha, ularning qayerda tahsil olib kelayotganini aytmadim-a? Ishoning, bu miya keyingi vaqtlarda kerak, nokerak so'zlariga band bo'lib qoldi. Ha, azamatlarmi? Ular Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya institutida himoyachi bo'lib shakllanib kelyapti.

- O'qiydimi?

- Uqqani uchun ham bugun ular jangchi qiyofasida qad rostlagan.

Vatanning havo kengliklari uzra xotirjamlikni saqlash, ayniqsa bugungi zamonda mashaqqatli bo'lib bormoqda. Shuning uchun ham o'tkazilgan mazkur o'quv uchish tayyorgarlik kursi bo'yicha mashqlar kursantlardan tezkorlikni, vaziyatni xotirjamlik bilan boshqarishni va mas'uliyatni talab etdi.

Birin-ketin harakatga kelgan vertolyotlar havoni titratib, atrofga kuchli shamol irtitib, tepaga - moviy gumbaz bag'riga intiladi. Institutning 2- va 4-bosqich kursantlari navbatma-navbat berilgan vazifalarni ado etdi.

Bu yerda har bir harakat, har bir buyruq, har bir qarorning ortida yillar davomida olingan bilim, mashaqqatli tayyorgarlik va Vatan oldidagi yuksak mas'uliyat turibdi. Hatto bu bo'lajak harbiy uchuvchilarning nigohida ham o'zini namoyon etgandi.

Otasining mashaqqatli yo'lidan borib, mas'uliyat libosini kiygan kursant Zafarbek Nuriddinov bugun 4-bosqichda tahsil olyapti. U shu vaqt davomida ayni yo'nalishda izlandi va o'rgandi. Tunlarni tongga ulashni odat qildi. Chunki harbiy bedor bo'ladi.

- Uxlasin.

- Uxlaganda qalblar osoyishta toparmidi?

Topmaydi. Topganlar borligi uchun ham bu havo sof va tiniq. Qushlar bulutlarni quchib yashaypti. Tog'lar bag'ri burgutlarga zamin. Chumoli o'tkir tishlari orasida olgan donni mashaqqatli bo'lsa-da, iniga olib boryapti. Bolalar o'yingohlarni quvnoq kulgilari bilan bezab, yuraklarni shodlantirmoqda.

- Shodlik bor bo'lsin.

- Bor bo'lsin shu shodlik.

Biz qaytdik. Vertolyotlar esa hamon shovqin ko'tarib, yangi bilim yo'lidagi kursantlar iznida ko'kka intilardi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



Muallif suratga olgan

Havo-desant tayyorgarligi



SAMOLARDA VATANIMNI QUCHGIM KELADI

Parashyut bilan sakrash mashqlari o'ta zargarona harakatlardan, matematik hisob-kitoblardan, aniqlik va ziyraklikdan iborat degan jumalarni ko'p eshitganman. Havodagi parvozlarda esa yerdagi mashaqqatli mehnatlardan boshlanishi haqida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi. Xullas, parashyut bilan amaliy sakrash jarayonlarigacha harbiy xizmatchilar muhim va qator tayyorgarliklardan o'tishi hammaga ma'lum. Bunda hech bir jihat esdan chiqmaydi. Hatto eng mayda detallar ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Vertolyotga chiqishdan oldin mashg'ulot rahbarlari guruhlardan yerga qo'nish, parashyut xalqasini tortish, 521, 522, 523 raqamlarini sanash mashqlarini bajartirishi belgilangan topshiriqning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlashga zamin yaratadi. Chunki desantchilarning muvaffaqiyatli sakrashlari ham yerda olib borilgan o'quvlarga bog'liq, albatta. Qo'rquvni yengish hissiyoti faqatgina axloqiy-ruhiy sifatleri mustahkam, o'ziga ishongan va mashqlarda har tomonlama toblangan kishidagina mujassam bo'lishi tajribalarda o'z isbotini topgan.

"Parashyut kiyish chizig'i", "Guruh komandiri tekshiruv chizig'i", "Vzvod komandiri tekshiruv chizig'i"... Bu ketma-ketlik harbiy xizmatchilarni havo sarhadlari tomon tobora

QUCHGIM KELADI

Mi-171E harbiy vertolyoti bortidan joy oldi. Harbiy xizmatchilar birin-ketin 1 200 va 2 200 metr balandlikdan sakrashni boshlab yubordi.

Shuningdek, desantchilar o'quv-uslubiy dasturlar va barcha shart-sharoitlar yaratilgan markazda har xil parashyut turlaridan foydalanish va yig'ish bo'yicha mashqlarni bajardi. Turli harbiy bo'linmalar harbiy xizmatchilari ishtirokidagi bunday o'quv yig'inlari sohada jangovar tayyorgarlik hamda shaylikni oshirish borasida juda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi.


E'tiborli jihati shundaki, bugun desantchilar orasida 200, 1 000, 3 000, 5 000 va hatto undan ham ziyod amaliy sakragan o'z kasbining ustalari bilan birgalikda, havo kengliklarini ilk marta zabt etishni maqsad qilgan Vatan himoyachilari va Quruqlikdagi qo'shinlar instituti kursantlari ham bor. Ularning har biri uchun tartib-qoida bir xil - eng muhimi, texnika xavfsizligiga rioya etish. Keyingi jarayonlarning bari har bir harbiy xizmatchi uchun haqiqiy adrenalin holatini tuhfa etuvchi lahzalardan iboratligi aniq.

Buni faoliyatidagi to'rtinchi sakrashini amalga oshirgan III darajali serjant Bobur Sobirovning so'zlaridan ham bilib olish mumkin.

- "Berkut-2" parashyutida navbatdagi sakrash amaliyotini bajardim. Ishonsangiz, asta-sekin qo'rquvni nazorat qilishga ko'nikib boryapman. Boshida ustozlarimiz qo'rquvni nazorat qilish mumkinligi haqida aytganda, bu jumla ko'pchilikka erish tuyulgan. Jumladan, menga ham. Endilikda har bir sakrash jarayonini sabrsizlik bilan kutaman, deya olaman. Parvoz zavqi haqidagi hissiyotlarimni so'z bilan ifodalashim qiyin. Har safar parashyut bilan sakraganimda samolarda Vatanimni quchgim kelaveradi. Chunki balandlikda yurtimni yanada jozibaliroq ko'rish imkoniyatiga ega bo'laman...

Ha aytganча, 12-20-iyun kunlari Belarus Respublikasida parashyut sporti bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tadi. Mudofaa vazirligi Jangovar tayyorgarlik bosh boshqarmasi qo'shinlar tayyorgarligi boshqarmasi havo-desant tayyorgarligi bo'limi boshlig'i polkovnik G'ulom To'ychiyevning ta'kidlashicha, mezbonlar mazkur musobaqaga O'zbekiston Mudofaa vazirligi jamoasini ham taklif etgan. Harbiy sportchilarimiz murosasiz kechadigan bahslarga tayyorgarlik jarayonini allaqachon boshlab yuborgan.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasi parashyut-desant mashg'ulotlari maydonida bo'lib o'tayotgan jarayonlarni kuzatar ekanmiz podpolkovniklar Zohid Avazov, Jo'rabek Davronov, kapitan Asror Hasanov kabi mutaxassislar safda turgan yigitlarni, ularning parashyutlarini qayta-qayta ko'zdan kechirayotganiga guvoh bo'lamiz.

yaqinlashtirib bormoqda. Xullas, jarayonlar boshlandi. Desantchilar guruhlariga bo'lingan holda "D-6", "Berkut-2", "Malva" kabi parashyutlardan navbatma-navbat belgilangan hududga muayyan qo'shimcha yuklar bilan sakrash jangovar vazifasini bajaradi. Uchishga tayyor desantchilar Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlariga qarashli



Bitiruv malakaviy ishlanmalar

Shu kunlarda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida ta'lim olayotgan kursantlar uchun eng mas'uliyatli va ayni paytda sharaflil bosqich – bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayoni qizg'in pallaga kirdi. Ayniqsa, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarini tayyorlash kafedrasida tahsil olayotgan qo'mondonlik-muhandislik mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchi kursantlar o'z ilmiy ishlanmalari ustida tinimsiz izlanishlar olib bormoqda.

NAZARIY BILIM

AMALIYOT BILAN UYG'UNLASHMOQDA



Bu ishlar ular uchun nafaqat ilmiy faoliyatga qadam, balki Vatandagi muqaddas burchning amaliy ifodasiga aylanmoqda. Universitet hududida nazariy bilimlarning haqiqiy harbiy amaliyot bilan uyg'unlashib borayotganini ko'rish har qanday inson qalbidagi g'urur va ishonch uyg'otadi.

Kursantlar kun-u tun o'z g'oyalari amalga oshirish ustida mehnat qilmoqda. Ularning qo'llarida yaratilayotgan maketlar kelgusida mamlakatimizdagi muhim va strategik ahamiyatga ega obyektlarni ishonchli himoya qiladigan zamonaviy "aqlli" tizimlarning ilk namunalarini hisoblanadi.

– Harbiy muhandislik yuqori mas'uliyat va aniq hisob-kitoblarni talab qiladi, – deydi 4-bosqich kursanti Amirxon Ubaydullayev. – Shu bois har bir ishlanmamizda xatolarga o'rin qoldirmaslikka harakat qilamiz. Nazariy bilimlarimizni amaliyotda sinab ko'rish orqali o'zimizni yanada chiniqtiryapmiz. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bizdan doimiy izlanishni talab etadi. Jamoa bilan ishlash jarayonida bir-birimizdan ko'p narsa o'rganyapmiz. Bu esa kelgusida xizmat faoliyatimizda mustahkam tajriba bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, har

bir mehnatimiz ortida Vatandagi xavfsizligi turganini chuqur his qilamiz.

Kursant Amirxon Abdullayevning "Harbiy qism hududini muhandis-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanishini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi bitiruv ishi hozirda maket ko'rinishida amaliy sinovdan o'tkazilmoqda. Loyiha doirasida zamonaviy datchiklar, muhandislik yechimlari va ilg'or elektron sxemalardan foydalanilgan bo'lib, bu ish nafaqat muallifning bilim saviyasini, balki uning yuragidagi Vatanga bo'lgan sadoqatini ham namoyon etmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, joriy yilda tayyorlanayotgan bitiruv malakaviy ishlarining qariyb 80 foizi amaliy qiymatga ega bo'lib, ularni ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati mavjud. Bu esa mamlakatimiz mudofaa tizimini zamonaviylashtirish yo'lidagi muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Bugungi kunda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti nafaqat ta'lim muassasasi, balki yangi avlod harbiy muhandislarini shakllantiruvchi intellektual markaz sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy o'quv binolari, muhandis-

texnik laboratoriyalar, drom-simulyatorlar hamda malakali professor-o'qituvchilarning doimiy ko'magi kursantlarga nazariy bilimlarni tez va samarali tarzda amaliyotga joriy etish imkonini bermoqda.

Bitiruv ishlarining maket shaklida taqdim etilishi esa universitetda shakllangan muhim an'analardan biriga aylangan. Bu maketlar orqali kursantlarning ilmiy g'oyalari nafaqat himoya qilinadi, balki kelgusida real harbiy qismlar va mudofaa tizimlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan darajaga yetkaziladi.

Kafedra boshlig'i Orif To'raxo'jayev bu borada shunday deydi: – Bugungi kunda harbiy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Biz kursantlarni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy tayyorgarligi yuqori bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan, tezkor qaror qabul qilishga qodir mutaxassislar sifatida tayyorlashga intilyapmiz. Zotan, bu kabi yondashuv kursantlarning kelgusi xizmat faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Chunki harbiy muhandislik sohasida bilim bilan bir qatorda amaliy tajriba ham hal

qiluvchi ahamiyatga ega. Asosiy maqsadimiz faqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash emas, balki o'z yurtiga, davlat ramzlariga va xalqiga sadoqatli, yuksak intellektual salohiyatga ega harbiy muhandislarni tarbiyalashdan iborat. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda, universitetda kechayotgan bugungi jarayonlar mamlakatimizda harbiy-texnik ta'lim yangi, yuqori bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Kursantlarning izlanishlari, tinimsiz mehnati va Vatanga bo'lgan muhabbati yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasining mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Ular – kelajak muhandis-harbiylari. Ularning qo'llaridagi maketlar orqali nafaqat ilmiy g'oyalar, balki yurt tinchligiga bo'lgan mustahkam ishonch va ezgu umidlar ham o'z ifodasini topmoqda.

**Podpolkovnik
Tursunali JABBOROV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Ichki ishlar vazirligi
qo'shinlarini tayyorlash
kafedrasida katta o'qituvchisi**

Harbiy ta'lim

KADRLAR TAYYORLASH TEKNOLOGIYALARINING TRANSFORMATSIIYASI

An'anaviy ta'lim texnologiyalari evolyutsiyasi – ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanib borish jarayonini ifoda etadi. Ushbu jarayonni ilmiy jihatdan tushunish uchun ta'limning faqat hozirgi holatini emas, balki uning tarixi, mazmunan o'zgarishlari va zamonaviy transformatsiya tendensiyalarini yaxlit holda tahlil qilish zarur. Ayniqsa, harbiy ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur, chunki bu tizimda ta'lim nafaqat bilim berish, balki intizom, mas'uliyat, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy harakat ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shu ma'noda, an'anaviy ta'lim harbiy ta'limda uzoq vaqt davomida asosiy va samarali model sifatida qo'llanilib kelgan. Uning ildizlari "ustoz-shogird" tamoyiliga borib taqaladi, ya'ni tajribali ofitser yoki qo'mondon o'z bilim va ko'nikmalarini to'g'ridan to'g'ri kursantlarga o'tkazgan. Keyinchalik XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan asoslangan sinfdars tizimi harbiy ta'lim muassasalariga ham kirib kelib, mashg'ulotlarni rejali, tizimli va ommaviy tashkil etish imkonini berdi.

Industrial jamiyat davrida harbiy ta'lim an'anaviy ta'lim texnologiyalarining eng qat'iy va tartibli ko'rinishini namoyon etdi. Bu bosqichda intizom, buyruqqa bo'ysunish va standartlashgan bilimlarni o'zlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Kursantlar asosan o'qituvchi ko'rsatmalariga tayanadigan passiv subyekt sifatida shakllantirildi. Bunday yondashuv harbiy tayyorgarlikning ayrim jihatlarida, ayniqsa tezkorlik va bir xil harakatlarni talab qiluvchi holatlarda samarali bo'lgan, ammo murakkab va noan'anaviy

vaziyatlarda mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini cheklab qo'ygan.

Zamonaviy bosqichga kelib, harbiy ta'lim ham umumta'lim tizimi kabi transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy urush va xavfsizlik muhitining o'zgarishi, gibril va asimmetrik tahdidlarning paydo bo'lishi harbiy kadrlardan nafaqat intizom va itoat, balki tahliliy fikrlash, vaziyatni tez baholash va nostandart qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Shu bois an'anaviy ta'lim texnologiyalari interaktiv usullar, simulyatsiya, keys-tahlil va raqamli trenajyorlar bilan boyitilmoqda. Natijada kursantlar faqat buyruqni bajaruvchi emas, balki mustaqil fikr yurituvchi va qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllanmoqda.

Biroq bu o'zgarishlar an'anaviy ta'limdan to'liq voz kechishni anglatmaydi. Aksincha, harbiy ta'limda an'anaviy texnologiyalar – intizom, tartib, aniqlik va iyerarxiya boshqaruv –

hali ham asosiy ustunlardan biri bo'lib qolmoqda. Ularsiz harbiy tizimning samarali faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda eng samarali yondashuv – bu an'anaviy va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini uyg'unlashtirgan gibril model hisoblanadi. Bunda an'anaviy usullar asosiy tartib va intizomni ta'minlash, innovatsion texnologiyalar kursantlarning intellektual va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Harbiy ta'limda gibril modelni shakllantirish, avvalo ta'lim mazmunini qayta loyihalashni talab qiladi. An'anaviy o'quv dasturlari faqat nazariy bilimlarni yetkazishga emas, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. Shu maqsadda o'quv materiallari "nazariya – simulyatsiya – amaliy qo'llash – tahlil" zanjiri asosida qayta tuzilishi tavsiya etiladi. Bu yondashuv kursantlarda bilimni chuqur anglash va real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Harbiy ta'limda virtual jang maydonlari, taktik modellashtirish va

interaktiv trenajyorlar kursantlarni real vaziyatga yaqin sharoitda tayyorlaydi. Bu xavfsiz muhitda xatolar orqali o'rganish imkonini berib, amaliy tayyorgarlik samaradorligini keskin oshiradi.

O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi mutaxassisga aylanishi kerak. Shu maqsadda ularning raqamli savodxonligi, interaktiv metodlardan foydalanish va simulyatsion ta'limni tashkil etish ko'nikmalarini muntazam oshirib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy ta'lim texnologiyalari evolyutsiyasi harbiy ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u oddiy rivojlanish emas, balki talab va sharoitlarga mos ravishda qayta shakllanish jarayonidir. Zamonaviy harbiy ta'limning samaradorligi aynan shu – an'anaviy intizom va innovatsion fikrlash uyg'unligiga bog'liq.

N. RASHIDOVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi, p.f.f.d.

Sharqona qadriyatlar



Jamiyatning mustahkamligi, avvalo oilaning farovonligiga bog'liq. Oila esa faqat moddiy ta'minot yoki tashqi sharoitlar bilan emas, balki undagi mas'uliyat, o'zaro hurmat va to'g'ri qarorlar bilan obod bo'ladi. Keyingi yillarda oiladagi vazifalar taqsimoti, erkak va ayolning o'rnini haqida turli fikrlar bildirilmoqda.

Aslida bu masalaga bir tomonlama yondashish to'g'ri bo'lmaydi. Sharqona oilalarda erkak, avvalo mas'uliyat egasi, xonadonning tayanchi va himoyachisi sifatida qaralgan. Shu sababli muhim qarorlar qabul qilishda ham undan qat'iyat, uzoqni ko'ra bilish va javobgarlik talab etilgan. Chunki qarorning oqibati uchun ham birinchi navbatda erkak javobgar hisoblangan.

Biroq bu ayolning fikri e'tibordan chetda qolishi kerak degani emas. O'zbek oilalarining ko'p asrlik tajribasiga nazar tashlasak, oqila onalar, dono ayollar va farosatli kelinlar oilaning eng muhim maslahatchilari bo'lib kelgan. Sharqona qarashlarda erkak boshliq bo'lsa-da, ayol

oilaning qalbi va fayzidir. Qaror maslahat bilan qabul qilinganda, oilada ahillik va barqarorlik hukm suradi.

Bu masalada Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi voqealar ham chuqur mushohada qilishga undaydi. Asarda Yusufbek hoji, Otabek va O'zbek oyim obrazlari orqali oiladagi munosabatlar nozik tasvirlangan. Otabekning Kumush bilan nikohlanganiga qaramay, O'zbek oyimning Toshkentdan yana kelin olish masalasida qat'iy turishi oila ichidagi ta'sir kuchlarining murakkabligini ko'rsatadi. Bu yerda adib ayolni ustun qo'yishni emas, balki oiladagi ayrim masalalarda onalarning ta'siri qanchalik kuchli bo'lishini hayotiy misol orqali ochib bergan.

Roman qahramoni Yusufbek hoji o'z davrining dono, mulohazali va uzoqni ko'ra oladigan insoni sifatida tasvirlanadi. U oila boshlig'i sifatida har bir ishga aql bilan yondashadi. Uning qarorlarida shoshqaloqlik emas, balki mas'uliyat ustuvor turadi. Aksincha, ayrim masalalarda O'zbek oyimning hissiyotga berilishi, qarindosh-urug'larning gap-so'zlariga ortiqcha e'tibor qilishi keyinchalik fojiali oqibatlarga sabab bo'ladi. Aynan O'zbek oyimning qat'iy turib, Otabekka Toshkentdan yana uylanish masalasini qo'zg'ashi roman voqealarining keskinlashishiga olib keladi.

Bu yerda Abdulla Qodiriy ayolni ayblashni maqsad qilmagan. Aksincha, oilada qaror hissiyot asosida emas, aql va maslahat asosida qabul qilinishi kerakligini ko'rsatgan. Agar Yusufbek hojining fikri to'liq ustuvor bo'lganida, ehtimol Otabek, Kumush va Zaynab taqdiri

boshqacha kechgan bo'larmidi. Otabek va Kumush o'zbek adabiyotidagi eng go'zal muhabbat timsollaridan biri sanaladi. Ammo ularning baxti oiladagi ayrim noto'g'ri qarorlar sabab sinovlarga duch keladi.

Roman bizga bitta muhim haqiqatni eslatadi: oilada qabul qilingan har qanday qaror faqat bugunni emas, balki kelajakni ham belgilaydi. Bir qarashda oddiy tuyulgan qarorlar yillar o'tib butun oila taqdirini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Bugun ham ayrim oilalarda to'y masalasida ota emas, asosan onalar, xolalar yoki boshqa qarindoshlar boshqosh bo'layotganini ko'ramiz. Kuyovning otasi esa ba'zan faqat xarajat qiluvchi shaxs sifatida qolib ketadi. Holbuki, ertaga kreditni ham, qarzni ham, oqibatni ham ota va o'g'il birgalikda ko'taradi.

Masalan, o'rtacha imkoniyatdagi bir oila 500 kishilik to'y qilishga majbur bo'ladi. Sababi "falanchining to'yi undan zo'r bo'lgandi", "odamlar nima deydi", "uyat bo'ladi" kabi qarashlar ustun keladi. Natijada esa yoshlar oilaviy hayotini qarz bilan boshlaydi.

O'zbek xalqida "Ota rozi – Xudo rozi" degan hikmat bejiz aytilmagan. Chunki ota oilaning nafaqat moddiy, balki ma'naviy tayanchi hisoblanadi.

Bugungi kunda ayrim to'ylarda kuyovning otasi mehmon kutish bilan ovora, ammo asosiy qarorlarni boshqalar qabul qilayotganini ko'rish mumkin. To'y qayerda bo'lishidan tortib, qancha xarajat qilinishigacha ota bilan jiddiy maslahatlashilmaydi.

To'y bir kunlik tadbir bo'lsa-da, uning oqibatlari yillar davomida seziladi. Dabdabali marosim uchun olingan qarzarlar, ortiqcha sarf-xarajatlar va boshqalarning havasini deb qilingan isrofgarchiliklar keyinchalik yosh oilaning iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ota-bobolarimiz "Erkak bosh, ayol bo'yin" degan hikmatni bejiz aytmagan. Bu ibora ustunlikni emas, vazifalar uyg'unligini anglatadi. Bosh ham, bo'yin ham bir-birisiz yashay olmagani kabi, oilada ham erkak va ayol bir-birini to'ldirishi kerak. Erkak mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, ayol esa o'zining donoligi va farosati bilan unga ko'mak berishi lozim. Qarorlar maslahat asosida qabul qilinishi, ammo yakuniy javobgarlikni his qiladigan shaxsning qat'iy pozitsiyasi mavjud bo'lishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda oiladagi mas'uliyat va qaror qabul qilish masalasiga qayta nazar tashlash zarur. Bu jarayonda ayolning fikrini cheklash yoki erkakni mutlaq hukmron qilish emas, balki oiladagi tabiiy muvozanatni tiklash maqsad bo'lishi kerak. "O'tkan kunlar" bizga oilaning taqdiri ko'pincha qabul qilingan qarorlarga bog'liq ekanini o'rgatadi. Bugungi to'ylar, oilaviy munosabatlar va farzandlar tarbiyasida ham ana shu saboqni unutmashimiz lozim.

Zero mustahkam oila – maslahat, mas'uliyat va o'zaro hurmat ustiga quriladi. Ana shunday oilalar ko'paygan sari jamiyatimiz ham yanada mustahkam va farovon bo'lib boraveradi.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti tyutori

Bir askar – bir kasb



YOSHLAR KELAJAGIGA YO‘L OCHAYOTGAN IMKONIYATLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan muddatli harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kasbiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o‘zining amaliy natijalarini bermoqda.

Bugun harbiy xizmat nafaqat Vatan himoyasi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki yoshlarning kelajakdagi hayot yo‘lini belgilash, ularni kasb-hunarli va bilimli insonlar etib tarbiyalashning muhim maktabiga aylanib bormoqda. Shu maqsadda Qurolli Kuchlar tizimida “Bir askar – bir kasb” tamoyili asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy harbiy okrug Navoiy garnizonidagi harbiy qismda ham ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Harbiy qism hududida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari

muddatli harbiy xizmatchilarning qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etilmoqda. Ularga tajribali mutaxassislar va malakali pedagoglar tomonidan axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, texnik fanlar hamda zamonaviy kasblar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berib borilmoqda.

Muddatli harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan o‘quv sinfxonalari zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan bo‘lib, bu mashg‘ulotlarning samaradorligini yanada oshirmoqda. Darslar davomida yoshlar nazariy bilimlarni egallash bilan birga, amaliy mashg‘ulotlarda ham faol ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois harbiy qismlarda ham IT bo‘yicha bilimlarni oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Kompyuter savodxonligi, dasturlash asoslari, raqamli texnologiyalar va internet xavfsizligi bo‘yicha tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar yoshlarning zamon bilan hamnafas bo‘lib borishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan Monomarkaz bilan hamkorlikda muddatli harbiy xizmatchilar uchun kasb-hunar kurslari yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu kurslarda yoshlar elektrik, payvandlovchi, santexnik va boshqa bir qator yo‘nalishlarda ta‘lim olmoqda.

Kasb-hunar kurslarining asosiy afzalligi shundaki, bu yerda nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘un holda olib boriladi. Tajribali ustozlar tomonidan o‘tkazilayotgan

mashg‘ulotlarda harbiy xizmatchilar o‘zlari tanlagan kasbning sir-asrorlarini chuqur o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, bugungi mehnat bozorida texnik yo‘nalishdagi kasblarga talab yuqori. Shu sababli harbiy xizmat davomida bunday kasblarni egallash yoshlarning kelajakdagi bandligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Harbiy xizmatchilar uchun xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tili bo‘yicha tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda.

Navoiy garnizonida muddatli harbiy xizmatchilarni oliy ta‘lim muassasalariga tayyorlash masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Harbiy qismda fan o‘qituvchilari tomonidan matematika, ona tili va adabiyot, tarix, chet tillari hamda

boshqa fanlar bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar muntazam tashkil etilmoqda.

Mazkur darslar yoshlarning bilim saviyasini oshirish, test sinovlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish hamda oliy ta‘lim muassasalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, “Bir askar – bir kasb” tamoyili yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan eng muhim tashabbuslardan biridir. Mazkur tizim nafaqat kasb-hunar o‘rgatish, balki yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda mas‘uliyat, intizom va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi



Harbiy qism yettiligi



IJTIMOY HIMOYANING MUHIM KAFOLATI

Markaziy harbiy okrug tarkibiga kiruvchi Samarqand, Jizzax hamda Navoiy garnizonlarida joylashgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy holatini yaxshilash, turmush sharoitini yanada yuksaltirish hamda mavjud muammolarni tizimli o'rganib, ularga manzilli yechim topishga qaratilgan "Harbiy qism yettiligi" tashabbusi izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur tizim harbiy sohada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, harbiy xizmatchilar oilalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning hayot sifatini oshirishga qaratilgan muhim institutsional yondashuv sifatida shakllanmoqda. Bu esa harbiy xizmatning samaradorligi nafaqat xizmat intizomiga, balki harbiy xizmatchining ijtimoiy muhitiga ham bevosita bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Harbiy qism yettiligi" faoliyatining asosiy maqsadi – harbiy xizmatchilar oilalarining real ijtimoiy holatini chuqur o'rganish va muammolarni yuzaki emas, balki tizimli ravishda hal etishdan iborat.

Har bir harbiy xizmatchining yashash sharoiti, oilaviy ahvoli, turmush darajasi, oila a'zolarining bandligi, sog'lig'i va ijtimoiy ehtiyojlari mutasaddi rahbarlar

tomonidan o'rganilmoqda. Shu asosda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar aniqlanib, ularga manzilli yordam ko'rsatish mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda. Aniqlangan muammolar bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularning ijrosi qat'iy nazoratga olingan. Har bir murojaat va holat alohida o'rganilib, tezkor yechim berish tizimi shakllantirilgan.

Tizimning eng muhim jihatlaridan biri – muammolarga tezkor va manzilli yondashuv. Mas'ul rahbarlarga aniq topshiriqlar yuklatilgan bo'lib, ular har bir oilaning muammosini alohida ko'rib chiqish va amaliy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda.

Harbiy tizimda xizmat samaradorligi va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy jihatdan

qo'llab-quvvatlangan harbiy xizmatchi o'z xizmat vazifalarini yanada yuqori mas'uliyat va fidoyilik bilan bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, "Harbiy qism yettiligi" tizimi nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizm sifatida ham xizmat qilmoqda. Harbiy qismlarda ijtimoiy holat doimiy monitoring qilinib, har bir oila bilan individual ishlash yo'lga qo'yilgan.

Mazkur tashabbus harbiy jamoalarda sog'lom ijtimoiy muhitni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Harbiy qism komandirlari boshchiligidagi xizmatchilarning xizmatdan tashqari turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ishlari muntazam davom ettirilmoqda. "Harbiy qism yettiligi" faoliyatining samaradorligini ta'minlash

maqsadida tizimli monitoring yo'lga qo'yilgan. Har bir murojaat, muammo va uning yechimi bo'yicha alohida qayd yuritilib, ijrosi doimiy nazorat ostida amalga oshirilmoqda.

Bunday yondashuv tizimning shaffofligi va tezkorligini ta'minlab, muammolar cho'zilib ketishining oldini oladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarida davlat va harbiy tizimga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Ushbu tashabbus harbiy sohada ijtimoiy himoya, barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida shakllanib, harbiy xizmatchilarning hayot sifati va xizmatga sadoqatini yanada oshirmoqda.

Dilshoda SAIDMURODOVA,
Markaziy harbiy okrug
yetakchi mutaxassisi



Komandirning yondaftoriga



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

OLDINDAN KO'RA OLISH QOBILİYATI

Barcha buyuk sarkardalarda bu qobiliyat shunday rivojlangan ediki, bu ular iqtidorining, dahosining asosiy jihati tashkil etgan. Shunday sarkardalar qatorida qadimgi afinalik sarkarda va siyosatchi Femistokl, davlat arbobi va sarkarda Amir Temur turibdi.

Mashhur tarixchi Fukidid: "Femistokl eng qisqa fikr yuritishdan so'ng mavjud holatning eng to'g'ri, rostgo'y hukm chiqaruvchisi bo'lar va eng olis kelajak hodisalarini hammadan yaxshiroq aniqlay olar edi", deb yozgan. "Forslarning Marafon yaqinidagi mag'lubiyatida boshqa afinaliklar urushning shakshubhasiz yakunini ko'rishar edi. Femistokl esa yanada shiddatli kurashning ibtidosidir. U yaqinlashib kelayotgan hodisalarni ular kelmasdan turib, ko'ra olgan holda butun Elladani qutqarish uchun bu kurashga doimo tayyorlanar va davlatni harbiy ishda mashq qilishga donolik (*mohirlik*) bilan majbur qilar edi". Femistoklning ko'ra olish qobiliyatining yuksak amali forslar bilan urushning taqdiri dengizda hal etilishidagi dohiyona, lekin hamyurtlari tomonidan kechikib tushunilgan fikridir.

Amir Temur hodisalarni ko'ra olish qobiliyatiga egalik qilgan holda ilg'or tarixiy jarayonlarni qo'zg'atuvchi kuch sifatida harakat qilgan. Qudratli davlat yetakchisining harakatlari o'z davrining imkoniyatlari va chegaralari doirasidan chiqib ketdi va juda ko'p sohalarda yangi tizimlarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Sohibqiron o'z zamonasining davlatchilik asoslarini yaratishda milliy an'analardan tashqari, turk, mo'g'ul, arab va fors an'analarning maqbullarini qo'lladi, bu bilan eng ilg'or siyosiy maktab yaratdi. Keyingi asrlardagi barcha Sharq mamlakatlari hukmdorlari bu siyosiy maktabdan o'z davlatchiligining modeli sifatida foydalandi.

Ko'p asrlik tajriba natijasida hodisalarni oldindan muvaffaqiyatli ko'ra olishga eltuvchi ikki yo'l gavdalandi. Birinchidan, bilimlarning juda katta hajmini talab etadigan hisobni amalga oshirish va bu hisobni boshlashning asosiy nuqtasini, ya'ni birinchi qadamini topa olish qobiliyatini shakllantirish. Nimani hisoblashni va bu hisobni qay yo'sinda amalga oshirishni bilish zarur. Ikkinchidan, dushmani his eta olishni, uning nuqtayi nazariga tura olishni, u uchun fikrlay va qaror qabul qila olishni shakllantirish. Qo'mondondagi bu qobiliyatni, ayniqsa Napoleon yuksak qadrlagan.

Oldindan ko'ra olish qobiliyati – vaziyatni har tomonlama tahlil qilishning uddasidan chiqish, yuz berayotgan voqealarning mazmun-mohiyatini tushunish, hodisalar rivoji yo'nalishlarini anglash va ularning natijalarini topa olish demak. Hodisalarning umumiy tasvirini, bu tasvirning alohida, ba'zan vaziyatning ahamiyatsiz ko'rinayotgan unsurlari orqali tiklay olish, ular bo'yicha qarorlar qabul qila olish juda muhimdir.

Komandirning boshqaruvchanlik faoliyatida oldindan ko'ra olish va ijodkorlik sifatleri bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, ayniqsa komandir dushmani baholashi jarayonida. Oldindan ko'ra olish qobiliyati, komandir dushman to'g'risida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmagan holda jangga qaror qabul qilishga majbur bo'lgan sharoitlarda bu yetishmovchilikni bartaraf etishga yordam beradi, komandirga jang g'oyasi va qarorning boshqa unsurlarini ijodiy yondashgan holda belgilash imkonini beradi.

M. IBRAGIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti

"Boshqarish – demak, ko'ra olish", deyiladi qadimgi hikmatda. Ko'ra olish – demak, mavhumlik va vaziyatning o'zgaruvchanlik pardasi ortidan yuzaga kelayotgan hodisalarning asosiy maqsadini ilg'ash, ularning yo'nalishini aniqlab olish va bundan kelib chiqib, ular qaysi tomonga qarab ketayotganini tushunishdir. Ko'ra olish bu murakkabni oddiyga aylantirishning, umumiydan ahamiyatlisini ajratib olishning yuksak darajasidir. Ko'ra olish – vaziyatga chuqur sho'ng'ishning va undagi asosiysini, yaxshi hal etuvchisini, hodisalar kechuvini belgilaydiganini anglash natijasi.

Sayyor qabul

MUROJAATLAR HAL ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hudud – Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida sayyor qabul o'tkazildi.



Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar qatnashgan ushbu tadbirida dastlab ochiq muloqot o'tkazilib, yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

So'ngra har bir murojaat tinglanib, ko'tarilgan masalalarni shu joyning o'zida hal etish choralari ko'rildi.

Ayni jarayonda mehnat yarmarkasi tashkil etilib, harbiylarning oila a'zolari va muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlar uchun o'z mutaxassisligiga mos bo'sh ish o'rinlarini tanlashga qulay imkoniyat yaratildi.

Kitoblar ko'rgazmasi esa ishtirokchilarning ma'naviy dunyosini yanada boyitishga xizmat qildi.

Adliya mayori Ulug'bek XOLMAMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Jarayon



VATANGA SADOQAT IFODASI

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov Qarshi shahrida yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasi respublika bosqichining tantanali yopilish marosimida ishtirok etdi.

Unda, shuningdek Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari, Qashqadaryo viloyati hokimligi rahbariyati, qator davlat tashkilotlari va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Q. Isroilov o'z tabrik so'zida buyuk ajdodlarimiz shoni, Prezidentimizning yoshlarga bo'lgan yuksak ishonchiga munosib yosh avlod bugun har sohada ona yurtimiz nufuzini ko'klarga ko'tarayotganini, ushbu musobaqa ham yoshlarning Vatanga muhabbati va sadoqatini namoyon etuvchi muhim omilga aylanganini e'tirof etib, ishtirokchilarga ezgu tilaklar yo'lladi.

So'ngra tashkilotchi va hamkor idoralar vakillari bilan birgalikda faxrli 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan hamda 11 ta maxsus nominatsiya

bo'yicha g'olib bo'lgan jamoalarga diplom va esdalik sovg'alar topshirdi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatidagi harbiy shaharchalarning biridagi qurilish ishlari o'rganilib, barpo etilayotgan sport majmuasi ko'zdan kechirildi. Bunda byudjet mablag'lari iqtisod qilinishi, ishlar belgilangan muddatda bajarilishi va qonunchilik talablariga rioya etilishi ahvoliga e'tibor qaratilib, yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya mayori Begali XURRAMOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

Musobaqa

“JASORAT UCHQUNLARI” YOSHLARNI BIRLASHTIRDI

Bugungi globallashuv va mafkuraviy kurashlar keskinlashgan davrda yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va harbiy sport sohalariga qiziqish ruhida tarbiyalash har qanday davlatning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qarshi shahridagi Harbiy aviatsiya institutida yakuniga yetgan “Jasorat uchqunlari” harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasining respublika bosqichi shunchaki g’oliblarni aniqlash maydoni emas, balki mamlakat yoshlarining irodasi, bilimi va birdamligi sinovi bo’ldi.

Musobaqaning ko’lami uning dastlabki saralash bosqichlaridanoq sezildi. Mamlakatimiz bo’ylab faoliyat yuritayotgan 208 ta “Jasorat maktabi” o’quvchilari o’rtasida “Mardlik, bilim va sadoqat” shiori ostida o’tkazilgan shiddatli bahslar tizimning qanchalik ommaviy miqyosga ega ekanini ko’rsatadi. Har bir ma’muriy hududdan 14 ta eng kuchli jamoagina bellashuvning respublika final yo’llanmasini qo’lga kiritdi.

Musobaqaning tantanali ochilish marosimida Mudofaa, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirliklari, Janubi-g’arbiy maxsus harbiy okrug hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari finalchilarni qutlab, ularga omad tiladi.

Final bosqichi bahslarida faqatgina jismoniy kuch emas, balki intellektual salohiyat ham asosiy mezon qilib olindi. Ishtirokchilar harbiy-amaliy tayyorgarlik, sport va intellektual yo’nalishlarda o’z bilim va ko’nikmalarini sinovdan o’tkazdi. Musobaqa doirasida ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar tashkil etilib, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik tuyg’ularini mustahkamlash va hududlararo do’stona aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yakuniy natijalarga ko’ra, 1-o’rin Xorazm viloyatining “Jaloliddin Manguberdi”, 2-o’rin Qashqadaryo viloyatining “Buyuk Temur avlodlari” va 3-o’rin Toshkent shahrining “Barloslar” jamoalariga nasib etdi.

Musobaqa tashkilotchilari faqatgina kuchli uchlikni

aniqlash bilan cheklanmay, har bir jamoaning o’ziga xos ustun jihatlarni rag’batlantirishga qaror qildi. Unga ko’ra, Farg’ona viloyatining “Al-Farg’oniy” jamoasi “Eng kuchli jangovar ruhli jamoa”, Andijon viloyatining “Lochinlar” jamoasi “Eng chaqqon jamoa”, Namangan viloyatining “Temuriylar” jamoasi “Eng intizomli jamoa” nominatsiyalari bo’yicha rag’batlantirildi.

Shuningdek, Toshkent viloyatining “Burgut” jamoasi “Eng bilimdon jamoa”, Qoraqalpog’iston Respublikasining “Lochinlar” jamoasi “Eng topqir jamoa”, Surxondaryo viloyatining “Janub yo’lbarlari” jamoasi “Eng zukko jamoa” nominatsiyasiga sazovor bo’ldi. “Eng yaxshi tibbiy yordam ko’rsatgan jamoa” nominatsiyasiga Sirdaryo viloyatining “Temuriy avlodlari” jamoasi, “Eng ijodkor jamoa” nominatsiyasiga Jizzax viloyatining “Matonat” jamoasi, “Eng ahil jamoa” nominatsiyasiga Samarqand viloyatining “Turon” hamda “Eng yaxshi saf qo’shig’i ijrosi” nominatsiyasiga Navoiy viloyatining “Temuriylar” jamoasi munosib deb topildi.

Taqdirlash marosimida Mudofaa, Maktabgacha va maktab ta’limi, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya qo’mondonligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi, hamkor davlat idoralari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Musobaqa g’oliblari va sovrindorlari, jamoalarni tayyorlagan fidoyi ustozlar maxsus diplom hamda qimmatbaho sovg’alar bilan taqdirlandi.

“Jasorat uchqunlari” musobaqasi maydonlarida porlagan jasorat uchqunlari kelajakda Vatan himoyasi yo’lida ulkan mash’alaga aylanishiga shubha yo’q.

**Kapitan Dilshod RO’ZIQULOV,
“Vatanparvar”**



Vatanning buyuk farzandlari

Amir Temurning IMOMI VA TARJIMONI

Amir Temur kabi ulkan saltanat hukmdori uchun harbiy yurishlar faqat siyosiy va harbiy jarayon emas, balki diniy ibodatlar, diplomatik muloqotlar va ilmiy suhbatlar bilan ham chambarchas bog'liq, albatta. Shu bois sohibqiron huzurida ibodatlarni boshqaradigan yuksak ilmga ega imom, shuningdek turli mamlakatlardan kelgan ulamolar bilan bemalol muloqot qila oladigan, arab tilini mukammal biladigan tarjimonga ehtiyoj nihoyatda katta bo'lgan. Amir Temur o'zining harbiy safarlarida eng ishonchli imom va tarjimon sifatida Mavlono Abduljabborga tayangan hamda uni doimo yonida olib yurgan.

Manbalarda aytilishicha, u Amir Temurning kundalik ibodatlarida imomlik qilgan, harbiy yurishlar jarayonida ham hukmdor ibodatlarining tartib bilan o'tkazilishiga mas'ul bo'lgan. O'sha paytda sarbozlar ruhiyatini ko'tarish, safar davomida diniy birlikni saqlab turish va hukmdor oldida shar'iy marosimlarning to'g'ri bajarilishi aynan imom zimmasidagi eng muhim vazifalardan edi. Bundan tashqari, sohibqironning arab olamidagi zabardast ulamolar bilan uchrashuvlari, siyosiy-diplomatik muzokara va ilmiy bahslarida ham Mavlono Abduljabbor muhim o'rin tutgan.

Ibn Arabshoh ta'kidlashicha, u Amir Temur huzurida nafaqat imom, balki ilm ahli vakili sifatida ham tanilgan, faqihlikda chuqur bilimga ega fozil olim edi. Shu bois Amir Temurning saroyida o'tkaziladigan ilmiy majlislarda ko'pincha hakamlik qilgan. Ayniqsa, o'sha davrning yirik allomalari Sa'duddin Taftazoniy va Sayyid Sharif Jurjoniy o'rtasidagi mashhur bahsda hakamlik qilgani alohida eslanadi. Manbalarda aytilishicha, bu munozarada Sayyid Sharif Jurjoniy g'olib



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

chiqqan va bu natija saroy ahli orasida katta qiziqish uyg'otgan. **Mavlono Abduljabborning Amir Temur huzuridagi mavqeyi uning diniy e'tiqodi, ilmiy saviyasi, tarjimonlik mahorati va bahslaridagi adolatidan dalolat beradi.** U faqat ibodatlarni boshqaruvchi din arbobi emas, balki Amir Temurning shaxsiy hayotida muhim rol o'ynagan, ilm va siyosat chorrahasida faoliyat yuritgan yuksak darajadagi ziyoli sifatida tarixda munosib o'rin egallagan.

Mavlono Abduljabborning to'liq ismi haqida manbalarda ikki xil ma'lumot uchraydi. Amir Temurning Mamluklar davlatiga qilgan yurishi chog'ida Halabda u bilan uchrashgan olimlardan Ibn Xatib Nosiriy uni "Abduljabbor ibn Abdulloh al-Xorazmiy al-Hanafiy" deb ataydi. Ammo Halabda u bilan uchrashgan yana bir faqih olim va shu bilan birga, Halab qozisi

bo'lgan Abul Valid ibn Shihna esa uni "Abduljabbor ibn No'mon al-Xorazmiy al-Hanafiy" deb qayd etgan. Bu tafovut dastlab qaraganda, chalkash tuyulsa ham, boshqa tarixiy manbalar masalani oydinlashtiradi. Damashqda Mavlono Abduljabbor bilan bevosita suhbat qilgan buyuk tarixchi Ibn Xaldun ham uning ismini aynan Abduljabbor ibn No'mon deb tilga oladi. Bu esa No'mon ismi tasodifiy emasligini ko'rsatadi.

Eng muhim ma'lumotni esa Ibn Arabshoh beradi. Uning yozishicha, Mavlono Abduljabborning otasi Samarqandda yashagan, fiqh ilmining furu sohasida o'z davrining eng yetuk olimlaridan biri bo'lgan. U shunchalik mashhur va obro'li faqih ediki, zamondoshlari uni hanafiy mazhabining asoschisi bo'lgan buyuk faqih Imom Abu Hanifa No'mon ibn Sobitga o'xshatib, hurmat bilan No'mon Ikkinchi deb

atashgan. Shundan kelib chiqadiki, Abduljabborning otasining asl ismi Abdulloh bo'lgan, ammo ilmiy salohiyati va mazhabda egallagan mavqeyiga ko'ra, No'mon laqabi bilan mashhur bo'lgan. Demak, manbalarda uchraydigan ikki xil ism Abduljabbor ibn Abdulloh va Abduljabbor ibn No'mon aslida bir-biriga zid emas. Birinchi ism otasining haqiqiy ismini bildirsa, ikkinchisi uning ilmiy laqabi bilan bog'liq. Shu bois har ikkisi ham tarixiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Manbalarda uning tug'ilgan yili aniq ko'rsatilmagan. Biroq Ibn Xatib Nosiriy Halabdagi suhbatda Mavlono Abduljabbordan yoshini so'raganida u "hozir qirq yoshga kirdim", deb javob beradi. Amir Temurning Halabga kelishi va u yerda ulamolar bilan uchrashuvi hijriy 803-yil rabiyul avval oyining 14-kuni, milodiy 1400-yil 10-noyabrda sodir bo'lgani ma'lum. Shu ma'lumotlardan kelib chiqib, 803-hijriy yildan 40 yil ayirilsa, 763-hijriy yilga to'g'ri keladi. Bu esa milodiy 1362-yil atrofni anglatadi. Demak, manbalarda tug'ilgan sana aniq berilmagani holda mavjud guvohliklar asosida Mavlono Abduljabborning 763 hijriy, milodiy 1362-yilda tavallud topgani haqidagi xulosa mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Mavlono Abduljabborning otasi o'z davrining yirik ulamolaridan biri bo'lgan. Shu bois Mavlono Abduljabbor ham faqih va fozil kishi bo'lib yetishdi. U usul, mantiq, arab tili, fors tili va turk tillarini mukammal bilgan. 1400-yilda Amir Temur bilan birga Halab shahriga kelgan Mavlono Abduljabbor Halabda hanafiy mazhabi qozisi Kamoliddin Umar ibn Abiy Jarrodadan shayx Akmaliddinning Imom Marg'iloniyning "Hidoya" asariga yozgan sharhini so'raydi. Mazkur sharhni mutolaa qilgach, u unda bir qancha noaniqlik va xatoliklar mavjudligini aniqlab, bu haqda Halab ulamolariga ma'lum qiladi.

Mavlono Abduljabborning tarjimonlik faoliyatini misollar bilan ko'rsatmoqchi bo'lsak, bir qancha dalillarni keltirish mumkin. Halab qal'asi taslim qilingandan keyin Amir Temur u yerning ulamolari va qozilarini huzuriga to'pladi. Bu majlisda Halabning shofe' mazhabi qozisi Ibn Shihna ham qatnashdi va u yerda sodir bo'lgan voqealarni o'z asarida qayd qilib o'tgan. Majlisda Ibn Shihna shaxsan Amir Temur

bilan suhbat quradi. Amir Temur bilan Halab ulamolari o'rtasidagi suhbatda Amir Temurga arab tilidan Mavlono Abduljabbor ibn No'mon al-Hanafiy tarjimonlik qiladi. Majlisda Halab ulamolari o'zaro maslahat qilishib, ularning nomidan Ibn Shihna gapiradigan bo'ldi.

Amir Temur Mavlono Abduljabbor vositasi orqali Halab ulamolaridan so'ragan birinchi savoli quydagicha edi: Kechagi jangda biz tomondan ham, siz tomondan ham o'ldirilganlar bo'ldi. Ulardan qay birlari shahiddirlar? Bizning o'liklarimizmi yoki siznikimi? Bu savolga Ibn Shihna quyidagi hadis bilan javob beradi. Allohning rasuli (s.a.v) huzurlariga bir sahroyi arab kelib dedi: Yo Rasululloh! Bir kishi o'z nomusi uchun urush qiladi, boshqa bir kishi shijoat ko'rsatish uchun urush qiladi, yana biri esa o'z maqomini bildirish uchun urush qiladi, yana bir kishi o'lja uchun urush qiladi. Shulardan qaysi biri Allohning yo'lidadir? Allohning rasuli (s.a.v) kimki Allohning so'zi hamma narsadan oliy bo'lishi uchun jang qilsa, ana o'sha Allohning yo'lidadir. Bizlardan va sizlardan kim Allohning kalimasini oliy qilish uchun jang qilgan bo'lsa, o'sha shahiddir, deb javob berdilar. Amir Temur bu javobdan juda xursand bo'ldi. Shundan keyin samimiy suhbat eshiklari lang ochilib ketdi va Amir Temur: **“Men yarimjon odamman va falon va fulon mamlakatlarni egalladim”, dedi va Ajam, Iroq, Hind mamlakatlarini va boshqa shaharlarini birin-birin sanab chiqdi.** Bu vaziyatdan Ibn Shihna foydalanib, shunday dedi: “Bu ne'matlar evaziga shukur tariqasida bu xalqni afv eting va bundan keyin hech kimni o'ldirmang”. Amir Temur esa hech qachon qasddan bir kishini ham o'ldirmaganini aytadi. Halabliklar bilan bo'lgan jangda ular o'zlarini o'zlarini shahar darvozalarida qisib o'ldirganlarini va ularga mol-dunyolari bilan omonda ekanini aytadi.

Amir Temur halabliklardan so'ragan ikkinchi savoli quydagicha bo'ldi: Ali, Muoviya va Yazid haqida sizlar nima deysizlar? Shu vaqt Qozi Ilmuddin al-Qafasiy al-Molikiy ular hammasi mujtahidlardir, deb javob berib yubordi. Bundan Amir Temurning g'oyatda g'azabi kelib, Ali haqda, Muoviya zolim, Yazid esa fosiqdir. Siz halabliklar ham Damashq ahliga tobesizlar, ular (*damashqliklar*) bo'lsa, Yazid tarafdorlari bo'lib, Husaynni qatl etganlar, deb xitob qildi. Shu vaqt Ibn Shihna Amir Temurga lutf bilan murojaat etib, al-Molikiy bergan javobini u qandaydir bir kitobda ko'rgani va ma'nosini yaxshi tushunmaganini aytib, uning uchun uzr so'radi. Amir Temur biroz chehrasi ochildi-yu, lekin kayfiyati avvalgi holatiga qaytmadi. Undan so'ng Amir Temur Ibn Shihnadan yoshi haqida so'radi. Ibn Shihna tug'ilgan yilim

749-yil bo'lib, hozir ellik to'rt yoshga yetdim, deb javob berdi. So'ngra solat ul-mag'rib (*shom namozi*) vaqti kirib, namozga (*turishga*) chaqirildi. Amir Temur shom namoziga imomlikka Mavlono Abduljabbor ibn No'mon o'tishini buyurdi. Ibn Shihna Amir Temur bilan yonma-yon turib namoz o'qidi.

Shu o'rinda biroz tahlil qiladigan bo'lsak, bu vaqtda Halab shahrida shaharning to'rtta mazhab bosh qozilari va juda katta ulamolar jamoasi bor edi. Lekin Amir Temur o'zining imomi Mavlono Abduljabborni imomlikka o'tishligini buyurgan. Bu bilan Amir Temur o'zining imomini qanday e'zozlaganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi kuni ham Amir Temur Mavlono Abduljabborni va Halab qozisi Ibn Shihnani chaqirtirib, Ali va Muoviya haqidagi savolini qaytardi. Ibn Shihna unga: “Hech shak-shubhasiz, haq Ali tomonida edi. Muoviya esa xalifalardan emas edi. Chunki Allohning rasuli (s.a.v) tomonidan “Mendan keyin xalifalik o'ttiz yildir” degan sahih hadis sodir bo'lgan. Bu (*muddat*) Ali bilan tamom bo'lgan edi”, deb javob berdi. Shu vaqt Amir Temur Ali haqda, Muoviya zolim, deb ayt dedi. Bunga javoban Ibn Shihna “Hidoya”ning sohibi xalqqa jabr qiluvchi voliylardan qozilikka tayinlash joizdir, degan jumlasini keltiradi.

Darhaqiqat, garchi o'sha paytda Ali haqda bo'lsa ham, sahoba va tobeinlarning ko'pchiligi Muoviyning qoziligini qabul qilishgan, deb javob beradi. Bu so'zlardan Amir Temur xursand bo'ldi va Halabda istiqomat qilish uchun tayinlagan amirlarini chaqirib, ularga: bu odam bu shaharda sizlarning mehmoningizdir. U xizmatkorlari, do'stlari va ularga qo'shilgan kishilarga yaxshi muomala qiling. Biror kishi ularga aziyat berishiga yo'l qo'ymang, ular uchun yegulik oziq-ovqat ajrating va qal'ada qoldira ko'rmang, balki yashash joyi qilib madrasani, ya'ni qal'a ro'parasidagi Sultoniya madrasasini belgilang, dedi. Amirlar Amir Temur qanday buyurgan bo'lsa, ana shunday qilishadi.

Mavlono Abduljabbor Xorazmiy Amir Temurning eng ishonchli imomi, maslahatgo'yi va xalqaro muloqotlarda tarjimonlik qilgan yetuk olim edi. Ayniqsa, sohibqironning Damashqda mashhur tarixchi, jamiyatshunoslik fani asoschisi Ibn Xaldun bilan o'tkazgan ilmiy bahs-munozaralarida uning xizmati beqiyos bo'lgan. Mavlono Abduljabbor nafaqat ushbu uchrashuvlarda tarjimonlik qilgan, balki Ibn Xaldunga Amir Temurning shaxsiy xarakteri va harbiy zakovati haqida rasmiy tarixiy manbalarda uchramaydigan noyob ma'lumotlarni ham so'zlab bergan.

Ushbu qimmatli ma'lumotlar keyinchalik Ibn Xaldunning shogirdi – mashhur tarixchi Taqiyuddin Maqriziyning asarlari orqali bizgacha yetib keldi.

Maqriziy bu ma'lumotlarni shaxsan o'z ustozidan eshitganini ta'kidlaydi. Aynan Mavlono Abduljabborning ushbu xotiralari tufayli bugun biz Amir Temur siyomosining boshqa manbalarda yoritilmagan qirralarini chuqurroq anglash imkoniga egamiz.

Mavlono Abduljabbor Ibn Xaldunga sohibqironning harbiy yurishlaridagi sir saqlash qobiliyatini shunday ta'riflaydi: “Agar biror kishi senga: Amir Temur ko'chganida qayerga borishini kimdir biladi”, desa, aslo ishonma. Yoki “U qachon to'xtashini biror kishi oldindan biladi”, desa ham ishonma”.

Abduljabborning aytishicha, Amir Temur barcha amirlarni yig'ib kengash o'tkazsa-da, yakuniy qarorni faqat eng yaqin 5-6 nafar xos kishilari bilan pishitar va haqiqiy maqsadni hatto o'sha amirlarga ham oxirgi daqiqagacha aytmas edi. Askarlar dengiz to'lqinidek bir tomonga qarab yurar, lekin kutilmaganda Amir Temurning buyrug'i bilan butunlay boshqa tomonga burilib, dushmani g'afatda qoldirar edi.

Maqriziy o'zining asarida sohibqiron Amir Temur shaxsiyatining hayratlanarli qirralarini ochib beruvchi bir qancha nodir voqealarni keltirib o'tadi. Shunday hikoyalardan biri Ibn Xaldun tomonidan naql qilingan bo'lib, u bu ma'lumotlarni bevosita Mavlono Abduljabbor Xorazmiydan eshitganini bayon etadi. Ushbu voqea sohibqironning nafaqat harbiy sohada qanday yuksaklikka erishgani va inson psixologiyasini chuqur tahlil qila oladigan strateg ekanini yaqqol namoyon qiladi:

Voqea Damashq shahri yaqinidagi harbiy maydonda sodir bo'ladi. Bir kuni Amir Temur kutilmaganda otga minib, Mavlono Abduljabborga ham o'ziga hamrohlik qilishni buyuradi. Ularning yonida faqatgina bitta xizmatchidan bo'lak hech kim bo'lmaydi. Sohibqiron Misr mamluklari qo'shini turgan tomon yo'l oladi. Dushman askarlari otlarining ustida shay bo'lib turgan bir paytda, Amir Temur ularga yaqinlashib, uzoq vaqt davomida dushman harakatlarini diqqat bilan kuzatib turadi. So'ngra o'z hamrohi bo'lgan xizmatchini dushman o'rduogohi tomon yuboradi. Xizmatchi xuddi bir muhim farmonni yetkazayotgan elchidek ularga yaqin boradi va vazifasini bajarib qaytib kelgach, Amir Temurga yuksak ehtirom bilan ta'zim qiladi.

Qizig'i shundaki, dushman tomon sohibqironning kimligini ham, bu kichik guruhning asl maqsadini ham mutlaqo payqamaydi. Vaholanki, urush maydonida qarshisidagi kishining dushman ekanini sezishdan ko'ra muhimroq vazifa yo'q edi. Amir Temur esa bu vaziyatni ko'rib, kutilmagan bir xulosaga keladi. U qarorgohga qaytayotib, Abduljabborga qarab, bu qo'shin bugun tunda qochishini aytadi. Haqiqatan ham, o'sha tunda Mamluk sultoni Nasir Faraj va uning amirlari kutilmaganda

vahimaga tushib, o'z joylarini tashlagan holda qochib ketishadi.

Keyinchalik Mavlono Abduljabbor sohibqironidan bu sirni qanday qilib oldindan bilganini so'raganida, Amir Temur shunday javob beradi: “Men ularni kuzatish uchun borganimda, ularning birorta ham ayg'oqchi-qorovulini ko'rmadim. Shunda ularga yanada yaqin bordim va diqqat bilan kuzatdim – qarasam, ular tarqoq holda toifa-toifa bo'lib olishibdi. Ularga kelganimni bildirishni xohladim va hamrohimga buyurdim: u borib ularning oldidan o'tdi va qaytib kelib, menga xuddi podshohlarga xizmat qilingandek, yuksak ehtirom bilan xizmat qildi. Ular esa buni mutlaqo payqashmadi.

Holbuki, men ularning dushmaniman! Vaholanki, urushayotgan tomon uchun o'zi urushayotgan dushmanidan ko'ra muhimroq narsa yo'qdir. Bildimki, ular menga e'tibor berishmayapti va shunga qaramay, har bir toifa faqat o'z-o'ziga jipslashib qolibdi – angladimki, ular faqat o'zlarini tashvishga solayotgan bir ish ichidalar. U ish esa faqat qochib qutulish haqida qayg'urmoqdalar”.

Mavlono Abduljabbor Xorazmiy orqali bizgacha yetib kelgan ushbu nodir fakt Amir Temurning naqadar buyukligini ko'rsatish bilan birga, u dushmanning tashqi tartibsizligidan ularning ichki qo'rquvini, beparvoligidan esa ularning yaqin soatlardagi mag'lubiyatini bashorat qilgan. Bu ilmiy nuqtayi nazardan vaziyatni real vaqt ichida baholashning eng yorqin tarixiy namunasidir. Mavlono Abduljabborning ushbu xotiralari Ibn Xaldun kabi buyuk olimni ham hayratga solgani bejiz emas, chunki bu yerda amaliy tajriba va yuksak tafakkur bir nuqtada birlashgan.

Abduljabbor ibn No'mon Amir Temur bilan birgalikda juda ko'p olimlar bilan bahs-munozaralarga kirishdi. Bu bahs-munozaralarda o'zining yuksak iste'dodi bilan u yerdagi olimlarning ham e'tirofiga sazovor bo'lgan. Amir Temurning imomi, tarjimoni va maslahatchisi bo'lgan Abduljabbor ibn No'mon 1403-yili vafot etadi.

Xulosa o'rnida aytish joiz, sohibqiron Amir Temur o'z davrining eng yetuk ilmiy va diniy namoyandalari o'z huzurida jamlagan bo'lib, ular orasida hanafiy fiqhining zabardast olimi Mavlono Abduljabbor ibn No'mon alohida mavqega ega edi. Mavlono Abduljabbor sohibqiron tashkil etgan majlislarda nafaqat mohir tarjimon va odil hakam, balki diniy-huquqiy masalalar bo'yicha eng yaqin maslahatgo'y sifatida ham tanilgan.

Eng muhimi, u Amir Temur shaxsiyati va harbiy mahoratiga oid bizgacha yetib kelgan ko'plab noyob ma'lumotlarning asosiy yetkazuvchisi sifatida tariximizda o'chmas iz qoldirdi.

**Elyorbek TURDIMIRZAYEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti kichik
ilmiy xodimi**

"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari

YOSHLAR JASORATI



BILIM VA VATANPARVARLIK SINOVI

Musobaqaning birinchi yo'nalishi – "Harbiy-vatanparvarlik bloki" ishtirokchilarning intellektual salohiyati va tarixiy bilimlarini baholashga qaratildi. Yoshlar O'zbekiston tarixi, milliy davlatchilik an'analari, buyuk sarkardalar va mamlakatimiz taraqqiyotiga oid savollarga

libosda, bir maqsad yo'lida harakat qilgan yoshlarning chiqishlari tadbir ishtirokchilari va mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

HARBIY-AMALIY KO'NIKMALAR NAMOYISHI

"Shunqorlar"ning eng qiziqarli bosqichlaridan biri harbiy-amaliy ko'pkurash bo'ldi. Bu yerda ishtirokchilarning harbiy xizmatda zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.



Yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash, ular qalbidagi Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning jismoniy tayyorgarligi va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan muntazam o'tkazib kelinayotgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari ana shunday muhim loyihalardan biri sifatida yoshlar hayotida alohida o'rin tutadi.

"Yoshlar oyligi" doirasida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. Mamlakatimizning barcha hududlaridan saralab olingan yoshlar ishtirok etgan mazkur musobaqa nafaqat kuch va mahorat bellashuvi, balki vatanparvarlik, jamoaviylik va fidoyilik kabi yuksak fazilatlarini namoyon etish maydoniga aylandi.

YOSHLARNI BIRLASHTIRGAN NUFUZLI MUSOBAQA

Bellashuvning "Chirchiq" dala-o'quv maydonida bo'lib o'tgan respublika bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan tashrif buyurgan



17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 140 nafar yoshdan iborat 14 ta jamoa ishtirok etdi. Hududiy bosqichlarda munosib natija ko'rsatgan ishtirokchilar finalda o'z hududi sharafiga himoya qilish uchun bellashdi.

Musobaqaning ahamiyati shundaki, u yoshlarni harbiy xizmatga qiziqitirish, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik ko'nikmalarini mustahkamlash, jismoniy barkamollikni oshirish va jamoada ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ham "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari yil sayin yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

javob berish orqali o'z bilimlarini namoyon etdi.

Bu kabi sinovlar yoshlarning milliy g'urur va faxr tuyg'ularini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Zero o'z tarixini yaxshi bilgan yosh avlod kelajak oldidagi mas'uliyatini ham chuqur anglaydi.

Shuningdek, mazkur blok doirasida o'tkazilgan "Saf qo'shig'i" hamda "Biz – bir jamoamiz!" ko'rik-tanlovlari ishtirokchilarning ijodiy qobiliyati, jamoaviy ruhi va harbiy intizomini namoyon etish imkonini berdi. Bir xil

Jamoalar pnevmatik quroldan nishonga aniq o'q uzish, o'quv granatasini belgilangan masofaga uloqtirish kabi shartlarda kuch sinashdi. Bu mashqlar ishtirokchilardan nafaqat aniqlik va mahoratni, balki yuqori darajadagi diqqat va mas'uliyatni ham talab qildi.

Harbiylashtirilgan estafeta esa bellashuvlarning eng shiddatli qismi bo'ldi. Unda yoshlar "AK-74" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish, gazga qarshi niqobni tezkorlik bilan kiyish hamda belgilangan masofaga yugurish vazifalarini bajardi. Har bir soniya muhim ahamiyat kasb etgan ushbu bosqichda ishtirokchilarning chaqqonligi, irodasi va ruhiy tayyorgarligi yaqqol namoyon bo'ldi.

SPORT MAYDONIDAGI MUROSASIZ BAHSLAR

Musobaqaning sport bloki ham qizg'in va murosasiz kechdi. Duatlon, 100 metrga yugurish va turnikda tortilish kabi shartlar ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash imkonini berdi.

Yoshlar yuqori natijalarni qayd etish uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Ayrim bahslarda g'oloblarni aniqlash uchun soniyalar va hatto



NAMOYON BO'LGAN MAYDON



ulushli ko'rsatkichlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu esa musobaqaning raqobat darajasi qanchalik yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Bellashuvlar davomida ishtirokchilar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stlik muhiti hukm surdi. Bir jamoa a'zolarining boshqalarni qo'llab-quvvatlashi, g'olib va mag'lublarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi musobaqaning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirdi.

G'OLIBLAR MUNOSIB E'TIROF ETILDI

Uch kun davom etgan bahslar yakunida umumjamoa hisobida Toshkent viloyati jamoasi birinchi o'rinni egallab, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogini qo'lga kiritdi. Mazkur jamoa musobaqaning deyarli barcha yo'nalishlarida yuqori natijalarni qayd etib, munosib ravishda g'oliblikka erishdi.

Navoiy viloyati jamoasi ikkinchi, Andijon viloyati jamoasi esa uchinchi o'rinni egalladi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplomlar, esdalik va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Musobaqa doirasida tashkil etilgan "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi tadbirning eng mazmunli qismiga aylandi. Unda yoshlar "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi bilan ochiq muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Uchrashuv davomida tashkilot tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, o'quv muassasalarida yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, texnik va amaliy sport turlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar haqida atroflicha ma'lumot berildi. Shuningdek, yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi, taklif va mulohazalarini bildirdi.

Bunday muloqotlar yoshlarning fikrini eshitish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va kelgusidagi rejalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

YANGI YUTUQLAR SARI

Musobaqaning yana bir ahamiyatli natijasi sifatida joriy yilda ham 6 nafar yosh sport razryadlarini qo'lga kiritdi. Bu esa "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari nafaqat vatanparvarlik tarbiyasi, balki sport sohasida iqtidorli yoshlarni kashf etish va ularning mahoratini oshirishga ham xizmat qilayotganini ko'rsatadi.



Bugungi kunda "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, intizom va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilayotgan muhim loyihalardan biri hisoblanadi. Unda ishtirok etgan har bir yosh g'olib bo'ladimi yoki yo'qmi, avvalo katta hayotiy tajriba, yangi do'stlar va kelajak uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Shu ma'noda "Shunqorlar" nafaqat musobaqa, balki mardlik, jasorat, matonat va vatanparvarlik maktabidir. Bu maydonda yoshlar o'z kuchiga ishonishni, jamoa bilan harakat qilishni va eng muhimi, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish qanchalik sharafli ekanini anglab yetadi.

Zero mamlakat kelajagi ana shunday bilimli, jasur va fidoyi yoshlar qo'lida barpo etiladi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Vatanga sadoqat

46 YILLIK SHONLI YO'L

Har bir harbiy qismning tarixi – Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilgan o'g'lonlarning matonati, fidoyiligi va sadoqati bilan yozilgan shonli solnoma. Farg'ona garnizonida joylashgan harbiy qismning 46 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir ana shu ulug' an'analarga ehtirom, kelajak avlodga esa ibrat maktabi bo'ldi.

Tantanali marosimda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi mas'ullari, Qurolli Kuchlar faxriylari, harbiy xizmatchilar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar harbiy qismning mamlakat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidladilar. Qayd etilganidek, ushbu qism yillar davomida yuzlab malakali mutaxassislar va haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalab kelmoqda.

“Ko'kda qalqon, yerda posbon – desantchilar” degan ibora harbiylar orasida keng tarqalgan. U

desantchilarning jasorati, matonati, ular zimmasidagi yuksak mas'uliyatni ifoda etadi. Eng murakkab va xavfli sharoitlarda ham vazifani aniq va tezkor bajarishga qodir bo'lgan bu jangchilar doimo yurt manfaatlarini himoya qilishga shay turadi. Ana shu jihatlari ularni harbiylar orasida alohida e'tibor va hurmatga sazovor qilgan.

Ana shunday yuksak mas'uliyat va zamonaviy jangovar tayyorgarlik talabi so'nggi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari taraqqiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bilan uyg'un holda yanada mustahkamlanib bormoqda. Armiyani

zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash, ilg'or o'quv dasturlarini joriy etish hamda jangovar tayyorgarlik tizimini takomillashtirish borasidagi ishlar harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu harbiy qism ham mazkur yo'nalishda munosib natijalarga erishib kelmoqda. Shaxsiy tarkibning kasbiy mahoratini oshirish, jangovar shaylikni yuqori darajada saqlash va berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga qaratilgan ishlar izchil davom etmoqda. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar hamda jangovar tayyorgarlik jarayonlarida erishilayotgan natijalar bu yerdagi intizom va mas'uliyatning yorqin ifodasidir.

Tadbir davomida bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar, esdalik nishonlari hamda sovg'alar topshirildi. Bu e'tirof butun jamoa uchun yangi marralar sari intilishga turtki bo'ldi.

Ha, 46 yillik tarix – bu shunchaki raqam emas, minglab insonlarning fidoyiligi, sharaflari xizmati va Vatanga sadoqatining yorqin timsoli. Ana shunday shonli yo'lni bosib o'tgan harbiy qism bundan buyon ham “Ko'kda qalqon, yerda posbon” degan yuksak sharafga munosib bo'lib, yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishda davom etaveradi.

Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Qabul – 2026

KELAJAK OFITSERLARI SARALANMOQDA



Bugun Yangi O'zbekistonda Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan, bilimli va jasoratli yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri. Chunki yurt tinchligi va xavfsizligi, avvalo, ana shunday yuksak ma'naviyat va zamonaviy bilimga ega avlod qo'lida mustahkamlanadi. Shu ma'noda kelajak ofitserlarini saralash jarayonlari nafaqat tanlov, balki katta ishonch va mas'uliyat sinovidir.



Ana shu maqsadda Farg'ona va Andijon viloyatlarida “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyiga qabul bo'yicha saralash bosqichlari boshlandi. Unda yuzlab yoshlar o'z orzulari sari dadil qadam tashlab, bilim va salohiyatini namoyon etmoqda. Ularning har biri nufuzli ta'lim dargohi o'quvchisi bo'lish, kelgusida esa Vatan himoyachisi sifatida xizmat qilishni orzu qiladi.

Saralash jarayonlari ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etilgan. Nomzodlarning matematika, ona tili va adabiyot hamda xorijiy tillar bo'yicha bilimlari sinchkovlik bilan baholanmoqda. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, zamonaviy armiya

faqat jismoniy baquvvatlikni emas, balki chuqur bilim, keng dunyoqarash va strategik fikrlashni ham talab etadi.

Imtihonlar davomida yoshlarning qat'iyati, o'z kuchiga ishonchi va intilishi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Ayrim nomzodlar bolalikdan harbiy kasbni orzu qilib kelgan bo'lsa, boshqalari oilaviy an'anani davom ettirish niyatida ishtirok etmoqda. Biroq ularni birlashtirib turgan asosiy tuyg'u Vatanga xizmat qilishdek ulug' maqsaddir.

“Temurbeklar maktabi” bugun nafaqat ta'lim maskani, balki haqiqiy vatanparvarlik, intizom va liderlik maktabi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.



Bu yerda tahsil olgan yoshlar zamonaviy bilimlarni egallash bilan birga, mas'uliyat, jasorat va fidoyilik kabi insoniy fazilatlarini ham mustahkamlaydi.

Bugun sinovlardan muvaffaqiyatli o'tayotgan yoshlar ertaga mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlaydigan, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonch bilan ta'minlaydigan fidoyi ofitserlar safini to'ldiradi.

Zero Vatan taqdiri – bilimli, maqsadli va jasoratli yoshlar qo'lida.

Gulihumo MAJIDOVA,
Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati bosh mutaxassisi

Ishonch va imkoniyat

Zamon o'zgarib, talablar yangilanib. Bugun Vatan himoyachisi nafaqat jasur va matonatli, balki bilimli va zamonaviy fikrlaydigan shaxs bo'lishi talab etilmoqda. Shu bois harbiy xizmat bilan birga ta'lim olish imkoniyatining yaratilishi yurtimiz yoshlariga bildirilgan katta ishonch va e'tibor ifodasi sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi. Muddatli harbiy xizmatchilarga xizmatni o'tash davomida oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirishi va o'qishga qabul qilingan taqdirda onlayn ta'lim olish imkoniyatining yaratilishi harbiy sohada ham bilimga bo'lgan ehtiyoj yuksak ekanini ko'rsatadi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash doirasida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz, Kakaydi va Xayrobd garnizonlarida xizmat qilayotgan o'g'lonlar oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun hujjatlarini topshirdi. Bu jarayon harbiy intizom, qat'iyat va katta orzular bilan uyg'unlashgan

SAFDA ham ASKAR, ham TALABA



holda kechdi. Muhimi, bu tadbir yoshlar uchun kelajak sari qo'yilgan ishonchli qadam bo'ldi. Zero safda turib, Vatan tinchligini qo'riqlayotgan bu o'g'lonlar nafaqat qurol bilan yurt osoyishtaligini ta'minlamoqda, balki orzu va maqsadlari bilan o'z kelajagini ham bunyod etayotganini teran anglab yetmoqda.

Bu imkoniyatning mazmun-mohiyati juda chuqur. Zero harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni bilimli va raqobatbardosh kadr sifatida

tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Xizmat va ta'limning uyg'unligi esa yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, ularni yanada mas'uliyatli va maqsadli qiladi.

Bugun safda turgan askar ertaga jamiyatning yetakchi mutaxassisiga aylanadi. Uning qo'lida qurol bilan birga bilim ham bo'lsa, u nafaqat Vatanni himoya qiladi, balki uning taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shadi. Ana shunday yoshlar

mamlakatimizning eng katta boyligi, eng ishonchli tayanchidir.

Harbiy xizmat va ta'limni uyg'unlashtirishga qaratilgan bunday imkoniyatlar Yangi O'zbekiston kelajagiga mustahkam poydevor qo'yadi. Chunki bilimli askar bu faqat himoyachi emas, balki kelajak bunyodkori ham sanaladi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Armiya va yoshlar

“VATAN TAYANCHI” A'ZOLARI E'TIROF ETILDI

Yoshlar ishlari agentligining Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi binosida umumta'lim maktablarining “Vatan tayanchi” otryadi a'zolariga imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Tadbirda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i polkovnik Mirsaid Shukurov, Termiz harbiy prokurori, Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi rahbariyati, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, “Vatan tayanchi” otryadining faol yoshlari hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi hamda Vatan himoyasiga munosib farzandlar bo'lib voyaga yetishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida fikr bildirdi.

Tadbir doirasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda uning tarkibidagi institutlar faoliyati, u yerdagi harbiy ta'lim tizimi, qabul tartibi va kelgusidagi xizmat faoliyati istiqbollari xususida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, “Vatan tayanchi” harakati yoshlarda harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmat va yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usini

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani alohida ta'kidlandi.

Imtiyozli tavsiyanomalarni o'qishdagi yuqori natijalar, jamoat ishlaridagi faollik, namunaviy intizom hamda harbiy-vatanparvarlik tadbirlaridagi faol ishtiroki bilan ajralib turgan o'quvchilarga topshirildi.

– Bugun menga berilgan imtiyozli tavsiyanoma katta ishonch va mas'uliyat yuklaydi. Ushbu imkoniyatdan unumli foydalanib, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa institutiga o'qishga kirishni maqsad qilganman. Kelgusida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassis bo'lib, Vatanimiz himoyasi va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishni istayman, – dedi Elbek Karimov.

**Podpolkovnik
Sarvar TOSHTEMIROV,**
**Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari va harbiy
aloqa instituti
katta o'qituvchisi**

BIONIK DRONLAR

KELAJAK QUROLLARIMI?



XXI asr insoniyat taraqqiyoti tarixida eng shiddatli o'zgarishlar davri sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda.

Bu o'zgarishlar, eng avvalo, harbiy sohaga ta'sir ko'rsatib, zamonaviy urush konsepsiyasini tubdan o'zgartirmoqda. Ana shunday innovatsion yo'nalishlar orasida bionik dronlar alohida o'rin tutadi. Ular tabiat va texnologiya uyg'unligida yaratilayotgan, kelajak qurollari sifatida e'tirof etilayotgan eng ilg'or ishlanmalardan biri hisoblanadi.

Bionik dronlar tushunchasi zamirida tabiatdagi tirik mavjudotlar harakatini texnika orqali takrorlash g'oyasi yotadi. Oddiy dronlar ko'pincha vintli harakatlanish mexanizmiga asoslangan bo'lsa, bionik dronlar qushlar, hasharotlar yoki boshqa jonzoqlarning uchish va harakatlanish uslubini imitatsiya qiladi. Shu sababli ular tashqi ko'rinish va harakat jihatidan tabiiy muhitga juda yaqin bo'ladi. Bu esa ularni aniqlashni qiyinlashtiradi va amaliy jihatdan katta ustunlik beradi. Ayniqsa, kuzatuv, razvedka va maxsus operatsiyalar jarayonida bunday texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi.

Bionika fan sifatida tabiatdagi mexanizmlarni o'rganib, ularni texnika va muhandislik sohasida qo'llashni maqsad qiladi. Qushlarning parvozi, ninachining havoda muallaq tura olishi, baliqlarning suvdagi tezkor harakati yoki hasharotlarning murakkab manyovrlari – barchasi ilmiy tadqiqotlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ushbu tabiiy mexanizmlarning o'rganilishi natijasida bionik texnologiyalar shakllandi. Dastlab bu yo'nalish faqat ilmiy laboratoriyalar doirasida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik sun'iy intellekt va mikroelektronika taraqqiyoti uni amaliy texnologiyaga aylantirdi.

Bionik dronlarning eng katta afzalliklaridan biri, ularning tabiiy muhitga



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

moslashuvchanligidir. Ular harakatlanish jarayonida shovqinni minimal darajaga tushiradi, energiyani tejaydi va uzoq muddat avtonom rejimda ishlay oladi. Shuningdek, ular kichik hajmga ega bo'lgani sababli murakkab hududlarga kirib borish imkoniga ega. Bu esa ularni nafaqat harbiy sohada, balki qutqaruv operatsiyalari, ekologik monitoring va xavfsizlik tizimlarida ham qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Bugungi kunda dunyo davlatlari bionik dronlar ustida faol ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. AQSh, Xitoy, Rossiya, Isroil, Janubiy Koreya kabi davlatlar bu yo'nalishni strategik ahamiyatga ega texnologiya sifatida ko'rib chiqmoqda. Ular kelajak urushlarida asosiy

rolni yirik armiyalar emas, balki kichik, aqlli va avtonom qurilmalar o'ynashi mumkinligini ta'kidlamoqda. Shu nuqtayi nazardan, bionik dronlar zamonaviy harbiy strategiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Bionik dronlarni shartli ravishda bir necha turga ajratish mumkin. Ular orasida qushsimon dronlar alohida o'rin tutadi. Bu turdagi dronlar tashqi ko'rinishi va harakat mexanizmi bilan kaptar, qarg'a, burgut kabi qushlarni eslatadi. Ular uzoq masofalarga parvoz qila oladi, havoda barqaror harakatlanadi va tabiiy muhitda deyarli sezilmaydi. Bu xususiyatlar ularni chegara nazorati, strategik obyektlarni kuzatish va razvedka ishlarida juda samarali vositaga

aylantiradi. Shuningdek, ularga kichik kameralar, sensorlar va navigatsiya tizimlari o'rnatilishi mumkin.

Yana bir muhim yo'nalish – hasharotsimon mikro-dronlar. Ularning o'lchami juda kichik bo'lib, ba'zi modellari inson ko'zi bilan aniqlash qiyin darajada ishlab chiqiladi. Ular ari, ninachi, kapalak yoki chivin shaklida bo'lishi mumkin.

Bunday dronlar bino ichida kuzatuv olib borish, ma'lumot yig'ish, audio va video nazoratni amalga oshirishda qo'llaniladi. Ularning afzalligi shundaki, ular murakkab va cheklangan joylarga ham oson kirib bora oladi va yashirin holda ma'lumot to'playdi.

Texnologik rivojlanish bionik dronlarni yanada murakkab va intellektual tizimlarga aylantirmoqda. Sun'iy intellekt bilan integratsiya qilingan holda ular mustaqil qaror qabul qilish, muhitni tahlil qilish va vazifalarni avtomatik bajarish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bu esa ularning qo'llanish doirasini yanada kengaytiradi.

Bionik dronlar faqat harbiy sohada emas, balki fuqarolik yo'nalishlarida ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Qutqaruv operatsiyalarida qiyin hududlarni tekshirish, tabiiy ofatlardan keyin qidiruv ishlarini olib borish, ekologik nazorat va infratuzilma monitoringi kabi sohalarda ularning o'ri toбора ortib bormoqda. Shu ma'noda, bu texnologiyani faqat "qurol" sifatida emas, balki ko'p maqsadli innovatsion vosita sifatida ham baholash mumkin.

Umuman olganda, bionik dronlar insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab bermoqda.

Ular kelajakda harbiy strategiyalar, xavfsizlik tizimlari va hatto kundalik hayotda ham muhim o'rin egallashi mumkin. Shu bois "Bionik dronlar kelajak qurollarimi?" degan savolga javob hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bir narsa aniq: bu texnologiya insoniyatning texnologiyaga bo'lgan qarashini tubdan o'zgartirib yubormoqda va yangi davr eshigini ochmoqda.

Podpolkovnik A. FOZILOV, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug fakulteti kafedra boshlig'i

Texnologiyalar

IJTIMOIY TARMOQLAR
IMKONIYATLARI:

- ✓ Axborot almashish
- ✓ Muloqot qilish
- ✓ Ta'lim va kasbiy rivojlanish
- ✓ Biznes va reklama faoliyati
- ✓ Ko'ngilochar kontentdan foydalanish

MESSENERLAR
IMKONIYATLARI:

- ✓ Tezkor aloqa
- ✓ Ma'lumot almashish
- ✓ Guruhli chatlar
- ✓ Fayllar ulashish
- ✓ Oson va qulay muloqot

XAVFSIZ INTERNET –
XAVFSIZ KELAJAK!

- ✓ Ehtiyot bo'ling!
- ✓ Himoyalaning!
- ✓ Xavfsiz bo'ling!
- ✓ Kelajakni asrang!

AXBOROT XAVFSIZLIGI masalalari

bo'lsak, bugungi kunda **Facebook, Instagram, Tik-Tok va X (Twitter)** kabi ijtimoiy tarmoqlar millionlab insonlar tomonidan faol qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: axborot almashish, muloqot qilish, ta'lim va kasbiy rivojlanish, biznes va reklama faoliyatini amalga oshirish, ko'ngilochar kontentdan foydalanish.

Ushbu imkoniyatlar bilan birga ma'lum xavflar ham mavjud bo'lib, ular foydalanuvchilarning shaxsiy va moliyaviy xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning asosiy xavflariga **shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishini** keltirishimiz mumkin. Bunda ko'pchilik foydalanuvchilar o'z hayotiga oid ma'lumotlarni ochiq tarzda joylashtiradi, masalan: telefon raqami, manzili, tug'ilgan sanasi, ish joyi; geolokatsiya va boshqa ma'lumotlari. Bu ma'lumotlar yomon niyatli shaxslar tomonidan suiiste'mol qilinishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning xavflaridan yana biri **kiberbullingni** aytishimiz mumkin. Kiberbulling internet orqali haqorat qilish, tahdid qilish yoki insonga ruhiy bosim o'tkazish holatlarini anglatadi. Bu ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan muammo hisoblanadi.

Keyingi xavf **yolg'on axborot tarqalishi**. Ijtimoiy tarmoqlarda tasdiqlanmagan va soxta xabarlar tez tarqaladi. Bu esa jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qaramlik xavfi. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish insonning vaqtini samarasiz sarflashiga, diqqatning pasayishiga

va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Telegramm va WhatsApp kabi messenjerlar tezkor aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Messenjerlardan foydalanishdagi xavfsizlik muammolarini ham ko'rib chiqishni lozim topdik. Bular:

Akkauntlarni o'g'irlash. Firibgarlar SMS-kod yoki tasdiqlash kodini qo'lga kiritish orqali akkauntni o'zlashtirib olishlari mumkin.

Fishing – foydalanuvchini aldash orqali uning parollari va shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritish usuli. Masalan: foydalanuvchiga soxta sayt havolasi yuboriladi – foydalanuvchi soxta saytga ishonib, o'z ma'lumotlarini kiritadi – natijada foydalanuvchi ma'lumotlari firibgar qo'lga o'tadi.

Zararli fayllar. Messenjerlar orqali viruslar va zararli dasturlar tarqatilishi mumkin. Noma'lum manbadan kelgan fayllarni ochish katta xavf tug'diradi.

Endi **mobil ilovalarning xavfli jihatlari** haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tsak. Smartfonlar uchun yaratilgan ilovalar turli xizmatlarni taqdim etadi. Biroq ayrim ilovalar xavf manbai ham bo'lishi mumkin. Bular:

Ortiqcha ruxsatlar talab qilinishi. Ba'zi ilovalar: kamera, mikrofon, kontaktlar, geolokatsiya ma'lumotlari kabi ma'lumotlarga kirish huquqini talab qiladi. Bu esa foydalanuvchi maxfiylikiga tahdid tug'dirishi mumkin.

Zararli dasturlar. Rasmiy manbalardan tashqari, yuklangan ilovalar tarkibida viruslar bo'lishi mumkin. Natijada foydalanuvchining ma'lumotlari o'g'irlanishi; uyali telefon apparatining ishlashi sekinlashishi; qandaydir moliyaviy zarar kelib chiqishi mumkin.

Ma'lumot yig'ishi. Ko'plab ilovalar foydalanuvchilarning harakatlari haqida ma'lumot to'playdi va ulardan marketing maqsadlarida foydalanadi.

Kiberjinoyatchilik va internet firibgarligi. Kiberjinoyatchilik axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan jinoyatlar majmuasidir. Ularga quyidagilar kiradi: Akkauntlarni buzish, bank kartalari ma'lumotlarini o'g'irlash, onlayn firibgarlik, virus tarqatish, ma'lumotlarni shifrlab tovon talab qilish. Firibgarlar insonlarning ishonuvchanligidan foydalanib, turli yolg'on va'dalar yoki sovg'alar orqali ularni aldashga harakat qiladi.

Internetda xavfsizlikni ta'minlash uchun foydalanuvchilarga quyidagi qoidalarga amal qilishi lozimligini tavsiya qilamiz:

Parol kamida 12 ta belgidan iborat bo'lishi, katta va kichik harflardan tashkil topishi, raqam va maxsus belgilarni o'z ichiga olishi kerak.

Akkauntlarni qo'shimcha himoya qilish uchun ikki bosqichli tasdiqlash funksiyasini yoqish tavsiya etiladi.

Notanish manbadan kelgan havolalar va fayllarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur.

Yangi versiyalar xavfsizlikdagi kamchiliklarni bartaraf etadi va qurilmani himoya qiladi.

Foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini ommaga oshkor qilmasligi va maxfiylik sozlamalarini doimiy nazorat qilib borishi lozim.

Xulosa shuki, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va mobil ilovalar zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Ular insonlarga keng imkoniyatlar yaratsa-da, ma'lum xavflarni ham keltirib chiqaradi. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kuchli parollardan foydalanish, ikki bosqichli tasdiqlashni yoqish va internetda ehtiyotkor bo'lish orqali ushbu xavflarning oldini olish mumkin.

Axborot xavfsizligi har bir foydalanuvchining shaxsiy mas'uliyati bo'lib, raqamli texnologiyalardan ongli va xavfsiz foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

**Ilhom BEGIMQULOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi**

Surat sur'iy intellekt yordamida tayyorlandi

Yangi O'zbekistonda zamonaviy bilim, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirmasdan, axborot resurslari va aloqaning zamonaviy vositalaridan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirmasdan turib, biror bir jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy, texnik masalani hal etib bo'lmasligi to'g'risidagi tasavvur to'liq shakllanganini ta'kidlash zarur.

Shu o'rinda hozirgi raqamli texnologiyalar asrida internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va mobil ilovalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Ularning yordamida odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi, ma'lumot almashadi, ta'lim oladi va turli xizmatlardan foydalanadi. Biroq ushbu texnologiyalarning keng tarqalishi bilan bir qator xavflar ham paydo bo'lmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi, kiberjinoyatchilik, firibgarlik va zararli dasturlar shular jumlasidandir.

Shu sababli har bir foydalanuvchi internet muhitida o'z xavfsizligini ta'minlash usullarini bilishi va ularga amal qilishi muhim ahamiyatga egadir.


Ijtimoiy tarmoqlar va ularning jamiyatdagi o'rni haqida aytadigan

BRUTSELLYOZ KASALLIGI PROFILAKTIKASI

Brutsellyoz markaziy asab va tayanch-harakat tizimi, jinsiy a'zolarining zararlanishi bilan kechuvchi yuqumli zoonoz kasallik hisoblanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi 1886-yilda ingliz olimi Devid Bryus tomonidan chuqur o'rganilgani sababli uning sharafiga mikroblar "brutsella", ular chaqiradigan kasallik esa "brutsellyoz", xalq orasida "qora oqsoq" deb nomlangan.

Brutsellyoz bilan barcha turdagi hayvon va qushlar kasallanishi mumkin, lekin qoramol va qo'y-echkilarda ko'proq uchraydi. Odatda, chorvachilik rivojlangan hududlarda aholi orasida ushbu kasallik ko'p ro'yxatga olinadi. Kasal hayvonlar brutsellyoz qo'zg'atuvchisini siydigi, najasi va suti bilan ajratadi. Shuning uchun brutsellalarning hayotchanligini hisobga olganda, ularning ajralmalari bilan ifloslangan teri, yung, yem-xashak, suv, tuproq inson uchun zararlanish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Sog'lom odamga xastalik bemor hayvonning suti va go'shtini yaxshi termik ishlov bermasdan iste'mol qilganda yuqishi mumkin, bundan tashqari, bemor hayvonni parvarishlaganda, uning ajratmalari bilan ifloslangan sabzavotlarni iste'mol qilganda ham kasallik yuqishi mumkin.

Kasallik bemor odamdan sog'lom odamga yuqmaydi. Hayvonlarning qo'zilash mavsumida ularga yordam berishda, bemor hayvon go'shtini nimtalashda, bemor sigirlarni sog'ishda timalgan teri orqali yuqishi mumkin. Hayvon juni va terisiga ishlov berishda, bemor hayvonlar saqlangan binolarni supurib-sidirishda havo-chang orqali ham yuqishi mumkin. Odamlar brutsellyoz kasalligi yuqishiga moyilligi yuqori bo'lib, jinsiga va yoshiga bog'liq emas. Lekin kasallik bilan ko'proq 18-50 yoshdagi odamlar kasallanadi va bu asosan, ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.



YUQISH MANBALARI

Odam tanasiga brutsellalar shilliq parda va teri qoplami orqali kiradi va butun tana bo'ylab tarqalib, suyak ko'migi, jigar, buyrak, taloq, o'pka, tuxumdon, bachadon va boshqa a'zolarida to'planadi.

Brutsellalar inson tanasiga tushib, kasallik chaqirgungacha bo'lgan davr, ya'ni yashirin davri o'rtacha 1-3 hafta davom etadi, kasallik odatda, asta-sekin boshlanadi. Klinik belgilari juda xilma-xil bo'lib, eng e'tiborli belgilari isitma, umumiy darmonsizlik, bosh og'rihi, uyqusizlik, bo'g'imlarning shishib og'rib turishi va boshqalardir. Erkaklarda - orxit, epididimit, orxoepididimit, ayollarda - menstrual sikl buzilishi, jinsiy a'zolar yallig'lanishli o'zgarishlari, bola tushishi to'bepushtlikkacha bo'lishi mumkin.

Kasallik bir necha haftadan bir necha oygacha va hatto yillargacha cho'zilishi mumkin. Xastalikning surunkali kechishi brutsellalarning uzoq vaqt mobaynida tanada ko'payishi bilan bog'liqdir.



KASALLANGAN HAYVONLAR



XOM SUT



XOM GO'SHT

Bemor sog'ayganidan so'ng oradan 3-5 yil o'tib, kasallik belgilari qaytadan avj olishi mumkin. O'z vaqtida yoki to'liq davolanmaslik oqibatida insonda kechayotgan boshqa surunkali kasalliklarning avj olishi yoki og'irlashishi ro'y berishi mumkin, jumladan tayanch-harakat tizimida o'zgarishlar, jigar sirrozi va boshqa turli a'zolar va tizimlardagi funksional xarakterdagi o'zgarishlar vujudga kelishi mumkin.

Kasallikning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar uchta yo'nalishda olib borilishi lozim, ya'ni aholini kasallanishdan saqlash, kasbi chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan ishchilarni doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turish hamda sanitariya oqartuv ishlarini olib borishdan iborat.

Qishloq xo'jalik hayvonlarini brutsellyozga qarshi emlash, bemor hayvonlarni vaqtida aniqlab, alohida boqish va so'yish talab etiladi. Bemor hayvonlar boqilgan xonalarni dezinfeksiyalovchi vositalar yordamida zararsizlantirish, hayvonlardan olinadigan xomashyoni (*jun, teri*) yuqumsizlantirish, sutini qaynatish, go'shti va boshqa mahsulotlarini maxsus usullar yordamida zararsizlantirish lozim. Iste'molga chiqarilgan sut va sut mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlarining muntazam ravishda veterinariya nazoratidan o'tkazilishi kasallik oziq-ovqatlar orqali yuqishining oldini oladi.

Kasbiy guruhlar orasida kasallik yuqishining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu soha xodimlarini maxsus himoya vositalari bilan ta'minlash, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish va brutsellyozga qarshi emlash lozim.

Aholi orasida kasallikning kelib chiqishi, tarqalishi va undan himoyalani usullari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish ham o'zining katta samarasini beradi.

Tibbiy xizmat katta leytenanti F. NIYOZOV,
Qurolli Kuchlar xizmatchisi B. AHMEDOV,
Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari



9-iyun – Xalqaro arxivlar kuni

Arxiv sohasi fidoyilari e'tirof etildi



Keyingi yillarda yurtimizda arxivchilik tizimi zamon talablariga mos ravishda izchil rivojlanib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar arxiv sohasining nafaqat moddiy-texnik bazasini, balki uning intellektual va texnologik salohiyatini ham yangi bosqichga olib chiqdi.

Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivida ham arxiv ishi va ish yuritish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu yerda arxiv hujjatlarini jamlash, ularni aniq hisobga olish, ishonchli saqlash va keng jamoatchilik manfaatlarini yo'lida foydalanish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Shu bilan birga, arxiv sohasida raqamlashtirish jarayonlarining joriy etilishi xizmat samaradorligini yanada oshirmoqda.

Ayniqsa, mazkur ma'naviyat maskanining 2021-yilda zamonaviy talablarga javob beradigan yangi binoga ko'chirilishi bu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Yangi infratuzilma, ilg'or texnologiyalar va qulay shart-sharoitlar tarixiy, harbiy, siyosiy,

ilmiy hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan noyob hujjatlarni uzoq muddat va yuqori sifatda saqlash imkonini bermoqda.

9-iyun – Xalqaro arxivlar kuni munosabati bilan Mudofaa vazirligi Markaziy davlat arxivida bayram tadbiri ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar arxivlarning jamiyat hayotidagi o'rni, milliy xotirani saqlashdagi ahamiyati hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida alohida to'xtalib o'tishdi.

Tadbir doirasida milliy arxiv fondini boyitish va asrab-avaylashga munosib hissa qo'shayotgan, o'z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarayotgan, namunali xulqi va fidoyiligi bilan o'mak bo'layotgan bir guruh harbiy



xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari munosib taqdirlandi. Ayniqsa, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonida jonbozlik ko'rsatayotgan mutaxassislarining mehnati yuksak e'tirof etildi.

Shubhasiz, arxivlar bu millatning o'tmishini aks ettiruvchi bebaho xazinadir. Ularni asrash, boyitish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz. Zero o'tmishni bilgan xalqgina o'z kelajagini mustahkam barpo eta oladi.

**Podpolkovnik
Gulnora HODJAMURATOVA**

Hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda "Van Universal Motors" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida memorandum imzolandi.

YANA BIR MEMORANDUM



Kelishuv shartlariga ko'ra, avtotransport vositalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi "Van Universal Motors" MChJ "Vatanparvar" tashkiloti buyurtmasiga ko'ra, yuk mashinalari ishlab chiqarishni o'z zimmasiga oladi. Tashkilot esa ushbu mahsulotlar uchun kelishilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirib boradi. Yuk avtomobillaridan "Vatanparvar" tashkilotining o'quv muassasalarida avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida "BC" va "C" toifalari bo'yicha o'qiyotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanadi.

Birinchi bosqichda hamkor kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan 60 ta "FAW TIGER V" rusumidagi yangi yuk mashinalari xarid qilindi. Kelgusida "Vatanparvar" tashkilotining 208 ta o'quv muassasasini ushbu rusumdagi avtomobillar bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov va "Van Universal Motors" MChJ bosh direktori Ravshan Hasanov o'rtasida kechgan muzokarada tashkilot o'quv muassasalarida negizida transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish, ehtiyot qismlari ishlab chiqarish va

hamkor kompaniya tasarrufidagi avtomobil zavodlari uchun texnik mutaxassislar tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

"Vatanparvar" tashkilotining avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida respublika bo'ylab har yili o'rtacha 150 ming nafar fuqaro haydovchilikka tayyorlanadi.

Bundan tashqari, hozirda O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlar hamda xorijda vaqtincha ishlash istagida bo'lgan fuqarolar tashkilot o'quv muassasalarida haydovchilik kasbiga o'qitilmoqda.

O'zbekiston chempionati

ENG YAXSHI BIATLONCHILAR ANIQLANDI



Chirchiq shahrida sportning yozgi biatlon turi bo'yicha DXX xodimi marhum Sergey Nichipurenko xotirasiga bag'ishlangan O'zbekiston chempionati o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqada respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 50 dan ortiq sportchi to'rtta mashqda bellashdi.

Musobaqada sportchilardan turli masofalarda belgilangan joyga yugurib hamda rollerlarda harakatlangan holda kelishlari va pnevmatik miltiqdan nishonni mo'ljalga olishlari talab etildi.

Bellashuvda ayollar "3 km – sprint" mashqida hamda "7,5 km – roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonga qarata o'q uzdi. Erkak sportchilar esa "4 km – sprint" mashqlarida hamda "10 km – roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonni mo'ljalga oldi. Sportchilar, shuningdek individual poyga bahslarida ham o'zlarini sinab ko'rdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan yozgi biatlon bo'yicha O'zbekiston

chemponati musobaqasida qizlar o'rtasida Toshkent viloyatilik Diyora Valijonova "3 km – sprint", "7,5 km – roller-sprint" va 6 km – individual poyga mashqlarida mutlaq g'olib bo'lgan bo'lsa, 15 000 km individual poyga mashqida esa 1-o'ringa yana bir Toshkent viloyati vakili Inobat Tojiboyeva loyiq topildi.

Erkaklar o'rtasida esa 4 km – sprint va 7 km individual poyga mashqlarida Toshkent viloyati vakili Suhrob Rajabov hamda "10 km – roller-sprint" va 12 500 km individual poyga mashqlarida poytaxtlik Rouan Raimkulov 1-o'ringa sazovor bo'lishdi.

Umumjamo'a hisobida 1-o'rin Toshkent viloyati, 2-o'rin Farg'ona viloyati, 3-o'rin Toshkent shahri jamoalariga nasib etdi.

G'oliblar va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Kitob qadri

JAVONIMDAGI

“Temur tuzuklari”



Mo'jazgina kitob javonimda unchalik ko'p bo'lmasa ham, o'zim uchun yetarli kitoblarni bor. Kasbi-korim o'qituvchi bo'lgani bois doim kitoblarni ehtiyotlab saqlashga odatlanganman. Mening kamtarona bisotimdagi noyob “boy”liklarimdan biri 1991-yilda “Sharq yulduzi” jurnali” kutubxonasi rukni bilan G'afur G'ulom nomidagi nashriyot tomonidan yuqqagina muqovada chop qilingan “Temur tuzuklari” kitobidir.

Bu asarning men uchun qadriligi shundaki, avvalo, uning yurtimizda birinchi bor nashr etilgani bo'lsa, ikkinchidan, Vatanimiz mustaqillikka erishgan yilda chop etilgani, uchinchidan, unda bayon qilingan muammo va masalalarning bugungi kunda ham mavjudligi va sobiqqiron bobomizning ularga qanday yechim va choralar topganidir.

“Temur tuzuklari” kitobi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Amir Temurning hayoti, siyosiy faoliyati, davlatni barpo etish yo'lidagi kurashlari va harbiy yurishlari bayon qilingan, ikkinchi qismda esa davlatni boshqarish qoidalari, vazirlar va amirlarni tanlash mezonlari, qo'shin tuzilishi, adolatni ta'minlash, xalq manfaatlarini himoya qilish kabi masalalarga bag'ishlangan nasihat va qoidalar jamlangan. **“Temur tuzuklari”da quyidagi tamoyillar alohida o'rin egallaydi:**

- adolat va qonun ustuvorligi;
- davlat ishlarini maslahat va kengash asosida yuritish;
- rahbarning halolligi va mas'uliyati;
- qo'shin intizomi va harbiy tartib;
- ilm-fan, ma'rifat va bunyodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- xalq farovonligini ta'minlash.

Amir Temur davlatni mustahkamlash uchun rahbarlar bilimli, jasur va tadbirkor bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Shuningdek, mamlakatni boshqarishda adolatni eng muhim mezon sifatida ko'rsatgan. Shuning uchun ham bu asar nafaqat Temuriylar davri tarixi uchun, balki Markaziy Osiyo davlatchilik

an'analari o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Asarda davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar va jamiyat hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar saqlangan. Ko'plab tadqiqotchilar uni o'rta asrlardagi davlat boshqaruvi bo'yicha muhim qo'llanma sifatida baholaydi. **Shuning uchun ham bu kitob sobiqqiron bobomizning siyosiy tajribasi, davlatchilik qarashlari va hayotiy falsafasini o'zida mujassam etgan noyob asardir.** Unda ilgari surilgan adolat, intizom, maslahat va xalq manfaatlarini himoya qilish g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Shu bois mazkur asar o'zbek davlatchiligi tarixi va jahon siyosiy-huquqiy merosining muhim yodgorliklaridan biri sanaladi.

“Temur tuzuklari” asari 1783-yilda ingliz, 1783- va 1791-yillarda hind, 1787-yilda fransuz, 1868-yilda fors, 1845-yilda urdu, 1894-, 1934-yillarda rus va 1835- va 1857-yillarda kam nusxada va to'liq bo'lmagan holda eski o'zbek yozuvda nashr etilgan.

Bu noyob asarning ilk o'zbek tilidagi tarjimasini akademik Ibrohim Mo'minovning tashabbusi bilan 1967-yilda adib Ibrohim Rahim bosh muharrir bo'lgan “Guliston” jurnalida sharq tillari bilimdoni alloma Alixonto'ra Sog'uniy tomonidan tarjima qilinib, e'lon qilingan.

Bunday kamyob hodisa sho'rolar tuzumi sharoitida tom ma'noda ilmiy va ma'naviy jasorat bo'lib, tarixiy manbaning e'lon qilinishi kitobxonlar, ziyolilar tomonidan katta quvonch

va iftixor bilan kutib olingan. Bu tarixiy qadam o'sha vaqtda xalqning ma'naviyatini yuksaltirishda muhim voqea bo'lgan.

1989-yilda esa O'tkir Hoshimov bosh muharrir bo'lgan “Sharq yulduzi” jurnalining 8-sonida tarjimon Hamidulla Karomatov hamkorligida qaytadan to'ldirilgan holda chop qilingan.

Ha, sobiqqiron bobomiz qalamiga mansub deb e'tirof etilgan “Temur tuzuklari” asarida bayon qilgan yo'l-yo'riqlar, tadbirlar va pandlar oradan qancha yillar o'tsa ham, o'zining nodir ahamiyatini yo'qotgan yo'q. Davlat va jamiyat degan tushunchalar mavjud ekan, uni boshqarish usullari ham yangilanib, vaqt o'tgan sari takomillashib boraveradi.

“Temur tuzuklari” kitobidan o'rin olgan qoidalar esa bugungi kunda ham davlat boshqaruvidagi xodimlar, vazirliklar, firma va kompaniyalar, turli idoralar va mahallalardagi mas'ullar uchun qimmatli qo'llanmadir.

Bu bebaho asarni o'rganishni barcha oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus bilim yurtlarida va maktablarda tahsil olayotgan yoshlar ongi va shuuriga kengroq joylashtirishni esa uzoq yillar ta'lim tizimida ishlagan faxriy muallim sifatida barcha ziyolilarning va ota-onalarning, nuroniy buva va buvjonlarning ham burchi va vazifasi deb bilaman.

**O'rolboy QOBIL,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi**



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tibiyat: 55 511-25-90

buxgalteriya: 55 511-25-76

yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6142

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 769 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz

vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya